

1

Bu voqeaga ancha bo'ldi. Men endigina institutni tamomlagan yigirma ikki-yigirma uch yoshlardagi yigit edim. Orzu-havas katta. Qayoqqa qo'l uzatsam, yetadi. Bilaklarimda quvvat, qalbimda g'ayrat jo'sh urardi.

Yoshlik endigina qanot chiqargan uchirma qushga o'xshaydi. Hech narsadan tap tortmaydi, hech narsadan cho'chimaydi. Butun borliq unga yangicha, sirli bo'lib tuyuladi. Hamma narsani ko'rgisi, bilgisi, hamma narsada o'zidan qandaydir iz qoldirgisi keladi. Lekin bu izning qanday bo'lishini, unga sevinch baxsh etadimi, yo g'am keltiradimi, to'g'rirog'i, bilishni istamaydi. Agar shu istak unda hamma narsadan kuchli bo'lganda edi o'zini bunchalik tutmasmidi?! Kim biladi, balki men xato qilayotgandirman. Rostini aytganda, buning hozir mendan boshqa hech kimga ahamiyati yo'q. Biroq men o'zimni uchirma qushdek his qilib, o'sha paytlar notanish joylarga ketib qolganimdan sira afsuslanmayman.

Gap shundaki, men Yakkachinor qishlog'iga ishga jo'nadim. Rostini aytsam, otam majbur qildi. Institutda meni aspiranturaga olib qolishmoqchi edi. Otam shaharda qolmaysan, qishloqda ishlab kelasan, bu o'zingga foyda bo'ladi, deb turib oldi. Qanaqa foyda keltirishi mumkin qishloq shahar turganda?

Men unga avval tushunmadim. Jahlim chiqdi. Axir o'zingiz o'ylab ko'ring, men uning yolg'iz o'g'li bo'lsam, buning ustiga o'zi ancha keksayib qolgan bo'lsa, nega meni haydaydi?

Men juda erka o'sgan edim. Onam to'qqiz yoshligimda zotiljam kasalligidan vafot etgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, otamning menga bo'lgan munosabatida ikki kishining mehrini his qilardim. Tarbiyamga bu ta'sir qilmay qolmadi, albatta. Mendagi ikkilanish, hadiksirash kabi illatlar, balki shuning oqibatidir? Sirasini aytganda, bir onadan har xil bola tug'iladi, deyishadi. Ammo buning hozir kizig'i yo'q. Har kim o'z qilmishlariga o'zi javobgar bo'lishi kerak.

Shunday qilib, jahlim chiqsa ham otamning ra'yini qaytarmadim. Institutda menga taklif qilingan joylar orasida "Yakkachinor" nomli kolxoz ham bor edi. Samarqand oblastida, tog'ning tagida ekan bu kolxoz. Qishloq ham Yakkachinor, deb atalar ekan. Shuni tanladim. Hozir o'sha yillarni eslasam, institutda qolmaganinga xursand bo'laman, xursand bo'lamanu butun hayotimni bir umr og'ir musibatlariga g'arq qilganimdan o'ksinaman...

Diplom olgan kunim kechqurun shaharda qolgan o'rtoqlarim bilan "Toshkent" restoranida quyuq xayrlashib, uyga keldim-da, yo'l hozirligini ko'ra boshladim. Samolyot Samarqandga tunda uchishi kerak edi. Xayrlashayotib otam bir oz ko'z yoshi qilib oldi.

Uning qovoqlari salqigan, taram-taram ajin bosgan ozg'in yuziga qarab, rahmim kelib ketdi. Lekin nachora? O'zi ketishimni istagan edi. Tez-tez xat yozib turishga va'da berib, uydan chiqdim. Ikki soatcha aeroportda sanqib, nihoyat samolyotga o'tirdim. Charchagan ekanman, darrov ko'zim ilindi. Samolyot yerda pildirab ketayotganida uyg'ondim. Ko'p o'tmay, tong ota boshladi. Yana yo'l harakatiga tushdim. Lekin ancha vaqt shaharda qolib ketdim: Yakkachinorga boradigan birona ham mashina yo'q edi. Shofyorlardan bittasi bozorga borishni, "Yakkachinor" kolxoz do'konini topishni maslahat berdi.

- Topsam nima bo'ladi? - hayron bo'lib so'radim.

- Topsangiz, mashina bo'ladi-da, akasi! - dedi shofyor. - Do'konga mol-pol keladi-ku, axir!

Minnatdorchilik bildirib, bozorga yo'l oldim. Bir amallab do'konni topdim ham. Biroq u berk edi. Boshim qotib bozorning o'rtasiga joylashgan choyxonaga kirdim. Hali o'tirganim ham yo'q ediki, shopmo'ylov choyxonachi bir choynak ko'k choy bilan patnisda to'rt chaqmoq qand va yangi uzilgan Samarqand nonidan keltirib qo'ydi.

- Mehmon nima istaydilar? - so'radi u tabassum bilan choyni shopirar ekan.

- Qaymoq, - dedim men.

Shu topdayoq bir sopol tovoq qaymoq oldimda hozir bo'ldi.

- Mana, mehmon, marhamat qilsinlar, - dedi choyxonachi yana tabassum qilib.

Samarqand bozorlaridagi qaymoq bilan tandir nonining dovrug'ini eshitgan edim. Ammo bunchalik mazali bo'lishini bilmasdim. Non ko'rinishda Toshkentning shirmonidan farq qilmaydi. Faqat bezaksiz, sipo. Shuning uchun ham shirmondan anchagina yeyildi. Qaymoq ham quyuq, tovoqning chetlarida yangiligidan darak berib, ko'pirib turadi. Mazasi demasangiz, xuddi nisholdaning o'zi. Bir tishlam nonni unga botirib, og'zingizga soldingizmi, tamom, tovoqni sob qilguningizcha o'rningizdan turmaydiz.

Nonushta qilib bo'lib, qayoqqa borishimni bilmay turganimda:

- Yo'l bo'lsin, mehmon? - deb so'radi choyxonachi.

- Yakkachinorga, - dedim hafsalasizlik bilan. Keyin nimaningdir ilinjida so'radim. - Bilasizmi?

- Kim bilmaydi? - dedi choyxonachi jilmayib. - Uzumning koni bu qishloq. Innaykeyin, bizza jiyan Yakkachinorga do'xtir!.. Sizni o'sha yoqa otpravka qilishdimi?

- Ha, - dedim men ham noiloj iljayib. Choyxonachi boshini liqillatib qo'ydi. Aftidan, menga achinayotganday edi.

- Juda olis... - dedi choyxonachi battar boshini liqillatib. - A, nichavo!.. Ko'nikib ketasiz. Mana, bizza jiyan. Uch-to'rt oydan beri jim. Ungacha besh-olti marta qochaman, deb kategoricheskij xat yozgan. Hozir jim. Innaykeyin...

- Avtobus yuradimi? - so'radim gapini bo'lib.

- Avtobus? - choyxonachi aftini burishtirdi, keyin yana og'zini katta ochib jilmaydi. - Avtobus yo'q. Lekin xafa bo'lmang. Poputniy mashina bo'lib turadi. Qani, to'xtang-chi!

Choyxonachi qo'lidagi piyola sochiqni yelkasiga tashlab, choyxonadan chiqib ketdi. Ancha kutdim. Bir mahal tojikcha gaplashib, qop-qora bir yigitni boshlab keldi.

- Shu yigit eltib qo'yadi, - dedi choyxonachi yigitga ishora qilib. - Choy haqi bersangiz bo'ldi.

- Xo'p, - dedim. Ko'p savdolashmay kirani kelishdik. Yigit yo'l boshladi. Choyxonachi bozor darvozasigacha kuzatib chiqdi.

Mashinaga o'tirganimda u bitta kir xaltani uzatdi.

- Sho'rdanak. Bizdan jiyanga - Mavlonga berib qo'ying. Salom ayting. Onasiga xat yozsin. Omon bo'ling. Samarqandga kslsangiz kiring!

Yo'lga tushdik.

2

Yakkachinor - ikki tog' oralig'ida qisilib yotgan kichkina qishloq. Aholisi ham uncha ko'p emas. Yuz xonadondan oshmaydi. Odamlarning deyarli hammasi shu yerlik. Shu yerda tupilishgan, shu yerda o'sishgan, shu yerda ajoyib bog'lar yaratishgan. Bu bog'larning dovrug'i butun respublikaga ketgan. Qaysi bir yozuvchining kitobida yozilganidek, po'stini archib, tanglayingga bosishning bilan erib ketadigan sap-sarig' shaftolilar, har biri piyoladek-piyoladek keladigan achchiq-chuchuk qizil olmalar shu

yerda bitadi. Chet el yarmarkalarida o'ttizdan ortiq oltin medalCH olgan o'zbekning "Oq musallas"i ham Yakkachinorning buvakisidan. Tokzor bu yerda bir necha o'n gektarga cho'zilgan bo'lib, bir yog'i Zarafshonga, bir yog'i toqqa tutashib ketgan. Yakkachinor qishlog'i yangi kelgan kishiga ko'rimsizroq, betartibroq ko'rinadi. Lekin bu birinchi taassurot. So'nggi yillarda men ko'p qishloqlarda bo'ldim. Hammasining o'ziga xos fazilati, husni bor. Ammo hech qaysisi Yakkachinorga tenglasha olmaydi. Qishloqni ikkita teng qismga bo'lib ko'cha o'tgan. Samarqanddan cho'zilib kelgan bu ko'cha shu yerda toqqa tutashib, yo'qolib ketadi. Katta yo'l faqat shu. Biroq qishloq hisobsiz tor ko'cha va so'qmoqlar bilan to'la. Deyarli har bir uydan toqqa, dalaga yo'l chiqadi. Past-baland bu yo'llardan shaharlik kishining yurishi qiyin. Lekin yakkachinorliklar parvo qilishmaydi. Boshlariga katta-katta savatlarni qo'yib olib, tog'dan qishloqqa, qishloqdan toqqa chiqib ketaveradilar. Bolalar ham, ayollar ham xuddi shunday. Ularning mehmondo'stligini aytmysizmi? Agar biron kishinikiga mehmon kelib qolsa, hammasi navbatma-navbat chaqirishadi. Bormaganingizga qo'yishmaydi. Bordingizmi, tamom, butun boyligini oldingizga to'kadi. Hech narsasi bo'lmasa, bir patnis non bilan choy qo'yib, ashula qilib beradi. Qishloqda bironta odam yo'qki, ashula aytishni yoki qandaydir muzika asbobini chalishni bilmasin! Erta tong mahali, hali quyosh tog'ning ortidan ko'tarilmasdan dalaga chiqsangiz, qishloqning o'ng tomonida osma ko'prik kesib turgan olmozordan o'tib, daryo labiga borsangiz, hisobsiz qo'y-qo'zi podalarini ko'rasiz. Ular endigina boshini suvdan ko'tarishi bilan olisdan nay tovushi eshitaladi. Qo'ylar bu mayin, yuz xil ohangda yangrayotgan yoqimli tovushni bilishadi va birin-ketin o'sha tomonga yurishadi. Sizning ham o'sha yoqqa beixtiyor oyog'ingiz tortadi, bir daqiqa tashvishlaringizni unutasiz, o'zingizni qandaydir bir sehrli dunyoda his qilaisiz, onalaridan o'ynoqlab ortda qolib ketgan qo'zilarning har chekkadan tartibsiz ma'rashi ham qulog'ingizga xuddi nay sadosidek yoqimli eshitaladi. Men ko'p tonglarni ana shunday, daryo labida o'tkazganman. Quyoshning oltin nurlariga cho'milgan daraxtlar, kumush jilg'alarga tikilib, cho'pon nayining sirli sadolariga quloq solganman. Zarafshonning beshik-beshik to'lqinlanib, sekin oqishi meni maftun qilgan...

Yakkachinor oqshomlarining ham go'zal husni bor. Kun qorayishi bilan butun qishloq qorong'ulik ichiga g'arq bo'ladi. Oltinrang derazalargina bu yerda uylar borligidan darak beradi, xolos. Yarim kechaga borib chirog'lar birin-ketin so'nadi. Shunda dalada bo'lsangiz, olisda, baland qoyaning tepasida oy nuridan barglari mayda-mayda yulduzchalar hosil qilib, qishloq tomonga egilib turgan daraxtni ko'rasiz. Bu yakkachinor. Qishloq shu chinorning nomiga qo'yilgan. Chinorni qishloqning hamma yeridan ko'rish mumkin. Qorong'ilikda u xuddi qo'lini qishloq tomon cho'zib turgan devqomat inson haykaliday tuyuladi. Ba'zi qariyalar serxarxasha bolalarini shu chinor bilan olabo'ji, deb qo'rqitadilar. Lekin sevishganlar uchun esa u abadiy sevgi, vafo timsoli bo'lib tuyuladi. Rivoyatlarga qaraganda, bir cho'pon yigit begona mamlakat malikasini tushida ko'rib, oshiq bo'lib qolibdi. Dard zo'r kelib, qari onasi va oy desa oy, kun desa kundek yoshgina xotinini tashlab, qishloqdan bosh olib ketibdi. Oradan ko'p yillar o'tibdi. Bir kuu tong mahali tul qolgan bechora juvon ko'za ko'tarib suvga chiqsa, eshik tagida bevafo eri turgan emish. Yigit unga boshidan o'tgan voqealarni gapirib, o'z yurtidan bo'lak yurt yo'qligini, o'z xotinidan ko'hlik ayol yo'qdigini aytibdi va gunohidan o'tishni so'rabdi. Juvon ko'nmabdi. Yigit ketibdi. Tog'da makon qilibdi. U kunduzlari hech kimga ko'rinmay qoyalar orasida yotar ekan. Qosh qorayishi bilan baland qoya ustiga chiqib, qishlog'iga, uyiga termilar va gunohidan o'tishni so'rab, xudoga iltijo qilar ekan. Keyin u g'oyib bo'lib ketibdi. Rivoyatda aytilishicha, chinor shu yigit emish. Yakkachinorning faqat bir tomonga, qishloq tomonga qarab shox otib o'sganining boisi shu ekan.

Bu qadimiy rivoyat qariyalarning deyarli hammasiga tanish. Yoshlar ham bilishadi. Hatto, ashulalar ham to'qishgan. Kechqurunlari gulxan atrofiga to'planib, yoshlar sevgi haqidagi ana shunday qo'shiqlarni aytilishganda qalbing to'lqinlanadi, butun vujuding bilan insonning naqadar sofligiga, naqadar olijanob va naqadar go'zalligiga tahsin o'qiging keladi!..

Afsuski, men bularning hammasini keyin bildim, keyin tushundim. Qariyalar, hayot ko'rsang odam ko'rsan, deyishadi. Haqiqatan ham shunday ekan. Hayot ko'rmagan, dovon oshib o'zga joylarda bo'lmagan kishi yaxshi-yomonni ajratishi, odamlarning dilini anglashi mumkinmi?! Albatta yo'q. Chog'imda men chalg'ib ketdim. Bularning hammasi keyinchalik aytiladigan gaplar edi. Xo'sh, shunday qilib, bundan o'n ikki yil muqaddam Samarqand bozoridagi choyxonachining yordamida mashina topib, Yakkachinorga yo'l oldim. Chamamda, uch soatcha yurdik. Ko'zim atrofda, birinchi ko'rayotgan joylarimda. Ko'channing ikki chetida bir tekisda bo'y cho'zib turgan tollarni hisobga olmaganda, hammayoq paxtazor, bepoyon ko'm-ko'k paxtazor. Boshqa hech narsa yo'q. Lekin Zarafshonning tor joyiga qurilgan, bitta mashina yurarli ingichka yog'och ko'prikdan o'tishimiz bilan manzara keskin o'zgardi. Dov-daraxt shu qadar ko'payib ketdiki, men o'zimni o'rmonzorga kirib qolgandek his qildim. Chehram yorishib ketdi, jilmayib shofyorga qaradim. Ammo u parvosiz edi. Yo'l bo'yi sado chiqmagan, savollarimga ham imo bilan javob bergan bu yigitdan boshqa nima ham kutish mumkin edi? Balki, bu yerlarda ko'p bo'lganidan ko'nikib ketgandir, balki, o'zi shunaqa beparvo odamdir? Shu xayollar bilan bo'lib mashina peshayvonli oq bino oldiga kelib to'xtaganini sezmay qolibman.

- Idora shu, - dedi shofyor yigit. Uning yo'lga chiqqa-nimizdan beri aytgan gapi bu bo'ldi. - Tushing.

Men tushib ulgurmasimdan u chamadonimni yo'lkaga do'q etib qo'ydi-da, qo'limdagi pulni yulib olib, jo'nab qoldi. Men idoraga razm soldim. Toqqa qaratib qurilgan bu bir qavatli baland binoning atrofi gulzor edi. Oldidan ingichka ariq o'tgan. Toza, tiniq suv jildirab oqib yotibdi. Ichkariga kirdim. Idorada hech kim yo'q edi. Chamadonni ayvonga qo'yib, ochiq turgan eshiklardan bittasini sekin taqillatdim. "Kim?" degan ingichka ovoz eshitildi va shu ondayoq oldimda atlas ko'ylak kiygan yoshgina qiz paydo bo'ldi.

- Salom, keling? - dedi u.

- Rais shu yerdami?

- Rayondalar. Idorada mendan boshqa hech kim yo'q, - qiz, mening qo'limdan hech qanday ish kelmaydi, deganday uyalinqirab jilmaydi.

Shu top qo'limdagi sho'rdanak esimga tushdi.

- Medpunktini bilaisizmi?

- Ha, choyxonaning yonida, - dedi qiz hozirjavoblik bilan. - Yuring, olib boraman.

- Yo'q, rahmat. Ko'rsatsangiz bo'ldi.

Tashqariga chiqdik. Qiz ro'paradagi oq tunuka tomni ko'rsatdi.

- Shu uying orqasi choyxona.

Darrov topdim. Choyxona ko'channing shunday labida, katta hovuzning bo'yida edi. Panjara eshikdan kirishim bilan gup etib rayhon hidi dimog'imga urildi. Entikib Ketdim. Hovuzning atrofiga besh-oltita havorang bo'yoqqa bo'yalgan taxta so'ri qo'yilgan edi. Bittasida ikki chol, ikkinchisida oq jujun kitelCH kiygan bir odam o'tirardi. Aftini ko'rolmadim. U hovuzga teskari o'girilib, erinchoqlik bilan papiros tutatardi. Olis yo'l bosib chirchaganim sezildi. Jovdirab, o'tirishga ma'qulroq joy qidira boshladim. Shu tob o'n uch-o'n to'rt yoshlar chamasidagi, yuzlariga sepkil toshgan, malla soch bir bola yugurib oldimga keldi-da, salomlashib qo'limdagi chamadonni ildi.

- Bu yoqqa o'tiring! - dedi u do'rildoq ovozda va shoxlari hovuzga sho'ng'ib, muzdek shabadada tebranib turgan majnuntol tagidagi kichkina so'ri tomon yurdi. Bolaning tovushini eshitib, chollar biz tomonga o'g'irishdi. Qo'limni ko'ksimga qo'yib salomlashgan bo'ldim. Sipolik bilan soqollarini tutamlab, alik olishdi. Jujun kitelCH kiygan kishi o'g'irish u yoqda tursin, ko'z qirini tashlamadi ham. Yangi atlas ko'rpacha ustiga o'tirdim. Malla soch bola choy olib kelib qo'ydi. Juda chanqagan ekanman, ikki piyola bosib ichdim. Keyin bolani chnqirdim.

- Akasi, doktorni ko'rmadingmi?

Mavlonboy akanimi? - so'radi bola.

- Ha.

- Ana o'tiribdilar, - bola qo'li bilan ishora qilib kitelli kishini ko'rsatdi. - Mavlonboy aka!

Doktor erinchoqlik bilan biz tomonga o'g'irildi. U - yirik qora ko'zlari ustidagi baroq qoshlari bir-biri bilan tutashib ketgan, dumaloq yuzli, men tengi yigit edi.

- Nima deysan? - dedi u bir menga, bir bolaga zarda bilan qarab.

- Mehmon akamlar sizni so'rayaptilar, - dedi bola menga ishora qilib. - Baqqa keling.

Doktor avvalgidek erinchoqlik bilan o'rnidan turdi. Men o'zimcha kulib qo'ydim. Bola uni ko'rsatishi bilan u:shm oldiga borishim mumkin edi. Bilmadim, g'urur yo'l kuymadimi - yoshlikda nimalar qilmaydi kishi - yo uning Menga e'tiborsizlik bilan qaragani yoqmadimi, bormadim, hatto, qarshisiga ham yurmadim. Doktor oldimga kelib, savol nazari bilan salomlashdi.

- O'tiring, - dedim qarshimdagi joyni ko'rsatib. - Mavlon siz bo'lasizmi? - qo'shib qo'ydim u o'tirgach Mavlonligini bilib tursam ham.

- Men, nima edi? - doktor qoshlarini chimirdi.

- Manavini tog'angiz berib yubordilar, ermak qilarmishsiz.

Doktor nimagadir qizardi-da, qo'limdan xaltani oldi.

- Choyga qarang, - dedim men piyolani uzatib.

- Rahmat. Bahodir! - doktor kimnidir chaqirdi. Yugurib boyagi malla soch bola keldi. - Uzumdan olib chiq. - Bola ketgach menga qaradi. - Xo'sh, keling?

- Ishga yuborishdi, - dedim men va nima uchundir yon cho'ntagimdan diplomimni olib, oldiga tashladim.

Doktor diplomni ko'rib, qaytarar ekan, jilmayib qo'ydi. U juda chiroyli jilmayardi. Pastki qalin labi sal cho'zilib, o'ng yuzida kichkina chuqurcha hosil bo'lardi. Ingichka mo'ylovi yonidagi moshdek xol bo'rtib chiqib, uni xuddi yosh bolaga o'xshatib qo'yardi. Buni o'zi ham sezsa kerak, jilmayganda yuzlariga qizillik yugurardi. O'shanda ham xuddi shunday bo'ldi. U qizarib, mendan ko'zini oldi-da:

- Qalay, qishloq yoqdimi? - deb so'radi.

- Tuzuk, - dedim men. - Yaxshi joylar ekan.

- Qishloq yaxshi! - gapimni bo'ldi doktor. - Bir yog'i tog', bir yog'i daryo, mevazor bog', uzumzor... Insonga yana nima kerak? Qorni to'q, sog' bo'lsa - bo'ldi-da. Lekin bu menga to'g'ri kelmaydi, yo'q. Bahodir!

- Labbay-y, - dedi do'rilloq ovoz qayerdadir ichkari-da va shu ondayoq bir patnis husayni ko'targan Bahodir oldimizda paydo bo'ldi. - Yangi uzib kelaqoldim, - dedi u gunohkorona jilmayib.

- Yasha akasi.

Doktor patnisni menga yaqinroq surib, bir shingil uzum oldi-da, karsillatib chaynar ekan, gapida davom etdi:

- Mana, bir yilcha bo'lib qoldi kelganimga. O'zim kelganman. Hech kim majbur qilgani yo'q. Lekin rosa pushaymonman.

Kechirasiz, bu gaplarni sizga aytmasligim kerak edi. Yangi odamsiz. Lekin nachora. Manavi chollarga aytolmayman. Bu yerda hech kimga hech nima deyolmayman. Meni begona odam tushinishi mumkin. Men sizga aytsam, zerikish nimaligini shu yerda bildim. Meni cho'chityapti, deb o'ylamang, yo'q. Sizning yo'lingiz boshqa. Agronom ekansiz. Ertalabdan kechgacha ochiq havoda, dalada bo'lasiz. Yurasiz, ishlaysiz. Men-chi? Men deraza yonida turli xil sassiq, - doktor aftini burishtirdi, - achchiq dorilarni hidlab, kasal poylashim kerak. Kasal bo'lmasa nima qilaman? Shaharda bemor doktor izlasa, bu yerda doktor bemor izlaydi.

- Kasal kam bo'lgani yaxshi emasmi? - hayron bo'lib so'radim men.

- Boshqalarga yaxshidir, lekin doktorlarga, ayniqsa menga, buning bir tiyinlik foydasi yo'q. Kasal bo'lmasa davolash ham yo'q. Davolash bo'lmagandan keyin o'z-o'zidan tajriba ham bo'lmaydi-da.

Men beixtiyor kulib yubordim.

- Kulmang, - zarda bilan dedi doktor o'chib qolgan papirosini qaytadan tutatib. - Buning hech kulgili joyi yo'q.

- Nahotki bitta ham kasal bo'lmasa? - so'radim o'zimni tutib olib.

- Bitta ham? To'g'risi, kasallar bor, lekin qanaqa kasallar deng? Bittasi mayib - oyog'i chiqqan. Bittasi - otdan yiqilib tushgan - qo'li singan. Xullas, hammasi yara-chaqalar. Rasmana kasal yo'q.

- Sizga achinaman, - dedim men ham jo'rttaga xo'rsinib.

- Achinmang, - javob qildi doktor. - Foydasi yo'q. Baribir ketaman. Shaharga ketaman. Aytganday, siz raisni ko'rdingizmi?

- Yo'q, rayonga ketgan ekan.

- Qayerda yashaysiz? Xabar qilganmidingiz oldin?

- Yo'q, - dedim men yelkamni qisib.

- Bo'lmasa, biznikiga yuring. Ikkalamiz turamiz.

Doktor yalinganomuz menga tikildi. Yo'q, deyolmadim.

Shu zahotiyoyq yo'lga tushdik. Mavlon qo'yarda-qo'ymay chamadonimni ko'tarib oldi. Ko'p o'tmay, yetib bordik. Mavlon yashayotgan uy tog'ning etagidagi tepalikka joylashgan bo'lib, urtasi katta ravonli ikki xonadan iborat edi. Egasi eri o'lib ketgan bir kampir ekan. Mavlon yangi kelganda yaqindagina harbiy xizmatga ketgan o'g'lining xonasiga ko'chirib olib kelibdi.

Uyga kirganimizda kampir yo'q edi.

- Bog'da bo'lsa kerak, - dedi Mavlon va o'z xonasiga kirib, derazalarni ochib yubordi. Xona birdan yorishib, muzdek shamol yuzga urildi. Men deraza yoniga keldim.

- Qalay? - dedi Mavlon zavq bilan havoni shimirib.

- Yaxshi! - dedim to'yib nafas olarkanman.

Bu yerning faqatgina havosi emas, manzarasi ham yaxshi edi. Olisda, ko'm-ko'k olmazorning ortida kumushdek tovlanib

Zarafshon oqardi. Chap tomoningizda turli xil daraxtlar pana qilib turgan oq, sariq uylar... O'ng tomoningizda esa, ko'm-ko'k



osmon bilan o'pishib ketgan past-baland tog' tizmalari va qirraburun qora qoya ustida devqomat chinor...

- Yaxshi!.. - dedim derazadan ko'zimni uzolmay. - Yaxshi.

- Xo'p, bo'lmasa, - dedi Mavlon jilmayib. - Siz yotib dam oling. Manavi karavot sizniki. Men qo'lbola osh tayyorlayman. Keyin maktabga boramiz.

- Maktabga?

- Ha, maktabga, - dedi doktor. - Qishlokda qolgan bolalar yig'ilishadi. Bazm bo'ladi. Tomosha qilib kelamiz. Aytganday, men haligacha sizni...

Doktor jilmaydi. Ismimni aytdim. U chiqib ketgach, ko'yलगimni yechib, muzdek karavotga cho'zildim. O'rnimdan turganimda quyoshning botishiga bir qarich qolgan edi. Eshikka chiqib, toshlari ko'rinib turgan ariq suvida yuvina boshladim.

- Turdingizmi? - Bu doktor edi. U katta sochiqni yelkasiga tashlab yonimda turardi. - Bu yerda ko'zingiz ilinsa bo'ldi, kechasi-kunduzining farqiga bormay uxlayverasiz. Qani, yuring.

Biz uyga kirdik. Stol ustida uchi singan grafin bilan taqsimchada achchiq-chuchuk turardi. Mavlon uyalinqirab jilmaydi:

- Aybga buyurmaysiz, boshqa idish yo'q edi musallasga. Qani, marhamat. Kampirning o'zi qilgan. Qo'lbola. Marhamat.

U piyolalarga rangpar musallasdan to'latib quydi-da, birinchi o'zi ichdi. Hayron bo'lib ichmay turganimni ko'rgach:

- Hali ko'p ichamiz bu yerda, - dedi lablarini sochiq bilan artib. - Innaykeyin, gapirishib ichishni yomon ko'raman. Gap ishtahani bo'g'adi. Oling.

Ichdim. Ko'p o'tmay, osh suzib kelindi. Doktor toshkentcha oshga usta ekan. Ishtaha bilan yedik, ora-chora nordon, lekin yoqimli musallasdan ichdik.

- Boya men sizga, o'z ixtiyorim bilan kelganman dedim, - dedi gap orasida qizishib Mavlon. - To'g'ri, shunday bo'lgan. Lekin sizga rostini aytsam, bu yoqqa majburan jo'natishgan.

Men ham shunday, deganday kulib qo'ydim. Ko'chaga chiqqanimizda quyosh botgan, qishloqning pastki tomoni qorong'ilashib, birin-кетин chiroqlar miltillay boshlagan edi. Katta yo'lga chiqib, choyxonaga yaqinlashganimizda allaqayerdan chirmanda tovushi eshitildi.

- Boshlanyapti, - dedi Mavlon. - Demak, majlis tamom bo'libdi. Maktabni o'n ikki kishi tamomladi. O'ntasi qishloqda qolyapti.

Odam kerakligini bilishadi-da. Aytganday, bu yerda tomosha g'alati bo'ladi. Hamma o'ynashi, o'yinni bilmagan odam hamma qatori aytilayotgan ashulaga jo'r bo'lishi kerak. Bo'lmasa kulgi qilishadi. Albatta, mehmonlar bundan mustasno.

Mavlon mening chimirilib ketganimni ko'rib, jilmaydi:

- Siz bugun-erta mehmonsiz, cho'chimang.

Biz kolxoz idorasi joylashgan gulzordan o'tib, katta nllnglikka chiqdik. Ko'zlarim qamashib ketdi. Maydonning o'rtasiga gulxan yoqilgan edi. Bir yigit ukraincha ko'yलगining yenglarini tirsagigacha shimarib olib, chirmanda chaldardi. Uning yonida zar do'ppili yoshgina bir bola qashqar rubobining qulog'ini burar va "sekin, sekin" deb chirmandakashni turtardi.

Chirmandakash parvo qilmasdi. Maydonda boshqa hech kim yo'q edi. Men hayron bo'ldim. Mavlon, shoshmay turing hali, deganday yengimdan tortib qo'ydi. Bo'sh skameykalardan biriga o'tirdik. Ko'p o'tmay, qayoqdandir bir gala qiz yopirilib keldi.

Maydonni qiy-chuv, kulgi bosib ketdi. Oyog'im tagida paydo bo'lib qolgan katta ola chinqoq it vovillab yubordi. Qayerdandir shu tobda qora etik kiyib, oq yaktaklari ustidan ko'k qiyiq bog'lab olgan yigitlar kelib qolishdi. Hech qanday e'lonsiz, gapsiz raqs boshlanib ketdi. Men mahliyo bo'lib qoldim. Hozirgina to'polon qilib, betartib turgan qizlar gulxan atrofida tovsudek bir tekis suzib ketishdi. Men Toshkentda bunaqa o'yinni ko'rmaganman. Doktordan so'radim, o'zlik o'zi to'qishgan, "Besh qarsak" deb ataladi, dedi u. Men raqsdan ko'zimni uzolmadim. Gulxan atrofida doira bo'lib, boshlarini eggancha oyoq uchndi tebranayotgan qizlarni yigitlar o'rab olgan edi. Ularning oyoq tepishi, ko'kraklarini kerib, sipolik bilan qizlar atrofida aylanishi va chirmandaga jo'r bo'lib qarsak chalishlaridan cheksiz shodlik va g'urur nafasi ufurib turardi. O'yin davomida beixtiyor yangragan kulgi, sof, sokin kulgi, faqat yoshlarga xos bo'lgan samimiy ko'z urishtirishlar meni rom qilib qo'ydi... O'yin tugab, lapar boshlanib ketdi.

Maydonni to'ldirib qo'ng'iroq ovozlari yangradi. Keyin yana o'yin... Bu gal yakka o'yin bo'ldi. Hamma qator tizilib, keng doira tashkil etdi, chirmanda bilan rubob "Tanovar"ni kuylab yubordi. O'rta xonatlas kiygan bir qiz chiqdi. U boshidagi havo rang peshonabog'ini yangitdan bog'lab, ingichka qo'llarini yozganicha sekin o'yinga tushib ketdi. Lovullab yonayotan gulxandan qizarib ketgan nozik yuzlarida yengil tabassum o'ynay boshladi. Qiyiq qora ko'zlari olis-olislariga qadaldi... Nazarimda "Tanovar" - bu og'ir, ammo hayot muhabbati bilan to'lgan raqs uning uchungina yaratilgandek edi.

- Kim bu? - so'radim beixtiyor doktordan.

- Oypopuk, - dedi u. - Usmon akaning qizi. Usmon akaning kimligini bilmasam ham, so'ramadim.

Lekin doktor o'zi izoh berdi:

- Raisning qizi. Qoyil-a?!

So'nggi so'z qizning o'yiniga qaratilganmide, yo o'zigami, bilolmadim.

- Tuzuk, - dedim, yaxshi deyishdan o'zimni tiyib.

- Chaqiraymi? - so'radi doktor yosh bolalardek ko'zlarini o'ynatib va javobimni kutmasdan qo'shib qo'ydi: - Hozir tamom bo'lsin.

Bir mahal maydonda qarsak ko'tarildi. Mavlon o'rnidan turib, qizlar davrasi tomonga bir-ikki qadam qo'ydi.

- Oypopuk!

- Labbay?

Oypopuk "yalt" etib qaradi. Uning yoqimli, qo'ng'iroq ovozi bor edi.

Meni ko'rib, uyaldi shekilli boshini sal egib salom berdi. Unga tikilib qoldim. Oypopuk o'rta bo'yli, qotmadan kelgan qiz edi. Qora ipak tolasidek ingichka, uzun kipriklari xuddi surma surgandek ko'zlarini ajratib turardi. Gulxan nuridan yaltirab, yuziga ozgina soya tashlab turgan qirra burni ostidagi chiziqlar ozg'inligini bo'rttirar, lekin bu ozg'inlik uning o'ziga yarashib tushgan edi.

- Dadangiz uydamlar? - so'radi Mavlon.

- Yo'q, rayonga ketganlar. Majlis bor ekan, - dedi qiz.

- Mana, tanishing, yangi agronom, - gapida davom etdi Mavlon menga ishora qilib.

Otimni aytib, qo'limni uzatdim. U yalt etib menga bir qaradi-da, sekingina qo'lini uzatdi. Kichkina qo'l muzdek edi. Buni o'zi sezdi shekilli, darhol tortib oldi.

- Toshkentdanmisiz?

- Ha.

- Men ham. Toshkent issiq.

- Sizga yoqmaydimi?

Oypopuk nima deyishini bilmay, ko'zlarini javdiratdi.

- Yo'q, yoqadi. Lekin bu yer yaxshi. Sizga yoqdimi?

- Yoqdi, - dedim hozirjavoblik bilan.

Nimagadir u qizarib ketdi-da, jilmaydi. Keyin, ketaveraymi, deganday qilib Mavlonga qaradi.

- Mayli, boring, - dedi Mavlon uni tushunib. - Biz ham ketamiz. Kech bo'lib qoldi.

Oypopuk ketdi. Lekin biz o'rnimizdan qimirlamadik. Bilmayman, nima meni o'ziga tortdi? Nima meni bunchalik hayajonga soldi?

Maydondagi o'yin-kulgiga tikilib o'tirgan bo'lsam ham hech nimani ko'rmasdim. Xayolim nimalar pilandir band edi. Lekin nima bilan? Bilmasdim. Ammo bir narsa aniq edi. Men xursand edim, nihoyatda xursand edim. Mendagi bu hayajonni o'zicha tushunib,

Mavlon uyga qaytayotganimizda:

- Bular nima bo'пти! Hali shunday tomoshalarni ko'rasanki!.. - dedi.

Kuldim, undan emas, o'zimcha kuldim. Nazarimda, men bu yerga bugun emas, bir yil oldin kelganmanu, lekin shu bir Yil ichida

ko'rolmagan narsalarni bugun ko'rganday edim.

3

Ertasiga ertalab Usmon aka bilan uchrashdim. U idorada meni kutib o'tirgan ekan. SekretarCH qiz oldiga boshlab kirdi.

Ko'rishdik. Usmon aka kecha rayonda uzoq qolib ketib, meni uchratolmaganiga afsuslanib, kechirim so'radi. Men ayb

o'zimdalgini, xabardor qilib qo'ymaganligimni aytdim. Diplomimni olib tanisha boshladi. Ro'parasiga o'tprib, unga razm soldim.

Unda qiziga o'xshaydigan bironta alomat yo'q edi. Kulcha yuz, sarg'ish qoshlari siyrak, yapaloq go'shtdor burni g'adir yuziga

yopishib ketgan. Lekin ikki Chakkasidan oqara boshlagan qalin sochlari uni ancha savlatli qilib turardi.

- Juda yaxshi! - dedi bir mahal u o'rnidan turib. - Xuddi bizga kerak kasbni tanlagan ekansiz. Juda yaxshi. Yakkachinorda bog'

ko'p, ammo qarovning mazasi yo'q. Endi yo'lga tushadi. Nima deysiz?

Biron narsa deyishga o'z edim, jilmayib qo'ya qoldim.

- Men ham yangiman bu yerda, - dedi Usmon aka o'ng'aysizlanganimni ko'rib. - Faqat bir yil bo'ldi kelganimga. Ilgari rayonda

ishlardim. Bir bog'dorchilik bilan shug'ullangim kelib qoldi.

Shu payt eshik taqilladi. SekretarCH qiz kirib keldi.

- Oypopuk chaqiryapti. Choy tayyormish, - dedi u.

- Juda yaxshi. Bugun miriqib choy ichsak bo'ladi. Qani, yuring.

Usmon aka e'tirozimga qaramay uyga boshladi. Rostini aytsam, o'zim ham shunchaki nomiga e'tiroz bildirdim. Aslida,

Oypopukning ismini eshitishim bilan yana bir marta ko'rishni istab qolgan edim.

Uy olis emas ekan. Birpasda yetdik. Paxsa devor bilan o'ralgan hovliga kirganimizda:

- Popuk-k! - deb chaqirdi Usmon aka. - Mehmon olib kelyapman. Bu yoqqa chiq!

Ayvonga chiqqanimizda ichkari eshik ochilib, Oypopuk ko'rindi. U iroqi do'ppi kiyib, sochini chamberak qilib tang'ib olgan,

no'xat gulli ko'ylagi badaniga yopishib turardi. Salom berdim.

- Tanish, - dedi Usmon aka menga ishora qilib. - Yangi agronomimiz.

Oypopuk jilmaydi.

- Tanishimiz, - dedi sekin menga yer ostidan qarab qo'yib.

- Tanishimiz? - hayron bo'ldi Usmon aka. - Axir, kecha keldilar-ku, qayokdan taniysan?

Gapga aralashdim.

- Kecha kechqurun maktabda tanishdik, - dedim. - Doktor tanishtirib qo'ydi.

- E, bunday deng! Juda yaxshi, - dedi Usmon aka qiziga o'girilib. - Sen ham o'ynadingmi?

Oypopuk bosh silkidi.

- Attang, men bo'lmadim-da, - dedi Usmon aka. - Nimaga o'ynading? Yana "Tanovar" gami? Nega uyalasan?

Oypopuk qizarib, ichkariga kirib ketdi. Usmon aka kuldi.

- Buni qarang, mendan uyaladi. Haligacha uning o'yinini ko'rganim yo'q. Hamma ko'rди, faqat men ko'rganim yo'q.

Men juda yaxshi o'ynadilar, demoqchi edim, demadim. Uyaldimmi, yo sir tutgim keldimi, bilmayman.

Ko'p o'tmay, Oypopuk ichkaridan chiqdi-da, ayvonga dasturxon yozdi va o'zi ham o'tirdi. Lekin hech narsa yemadi. U o'ng

chakkasidan tushib turgan bir tutam sochini ingichka barmoqlari bilan o'ynab lablariga tekkizar, ba'zi-bazida otasiga qarab qo'yib,

oldidagi sovib qolgan choyni erin-choqlik bilan qult-qult qilib dori ichganday ichardi.

U menga erka ko'rinish ketdi. Yakka qiz bo'lgandan keyin shu-da. Istaganini qiladi. Lekin erka bo'lsa nega qishlokda qoladi,

kolxozda ishlaydi? Nahotki, bu ham erkalik bo'lsa? Men tushunolmadim. Ammo sekin-sekin achchiq ko'k choyni ichar ekanman,

undan ko'zimni uzolmasdim. Buni sezdimi, bir mahal o'rnidan turib, ichkariga kirib ketdi.

Nonushta qilib bo'lib, ketay deb turganimizda u eshikdan mo'ralab otasini imlab chaqirdi va nimadir dedi. Us-mon aka kuldi.

- Mayli, olib chiq bo'lmasa, - dedi u kulgi aralash. Oypopuk ko'p o'tmay, ichkaridan yangi qo'qon do'ppi olib chiqdi va otasiga

kiygizib qo'ydi.

- Rahmat, qizim, rahmat, - dedi Usmon aka qizini bag'riga bosib. Keyin menga o'girildi. - O'zi tikdi!

Oypopuk qizarib ketdi.

- Kechga nima qilay? - so'radi ko'zlarini mushti bilan yashirib.

- Ko'ngling tusaganini qil. Men sal kech kelaman, - dedi Usmon aka.

- O'zingiz kelasizmi?

- Bilmadim, - dedi Usmon aka menga qarab qo'yib. - Lekin har holda, ko'proq qilganing ma'qul.

Oypopuk bosh silkidi. Biz eshikka chiqdik.

O'sha kuni kechqurun men Usmon akalarnikiga kelmadim. Birinchidan, ish ko'payib ketdi. Ikkinchidan, Oypopukning xatti-

harakati meni ikkilantirib qo'ygan edi. Bu qanday qiz o'zi? Nega o'zini bunday tutyapti? Nima uchun mening oldimda o'zi tikkan

do'ppi bilan maqtandi? Shularni o'ylab, boshim qotdi. Keyin ishga berilib ketdim. O'sha kuni biz Usmon aka bilan uzumzorga

bordik. Rais meni Saksonboy ota bilan tanishtirdi. Ancha yoshga borib qolgan bu odam u.chumchilik brigadasining boshlig'i ekan.

Keyin rais ketdi. Litvadan o'nta nasldor sigir kelgan ekan. Shuni ko'rgani ketdi. Men brigadada qoldim.

Usmon aka aytganidek, Yakkachinorda bog' ko'p, lekin qarovning mazasi yo'q edi. Rayon asosan paxtakor rayon o'lgani uchun

hamma kuch paxtaga berilib, bog'dorchilik unutilgan edi. O'sha yillari faqatgina bizda emas, boshqa ko'igina kolxozlarda ham ahvol shunday chatoq edi. Buning ustiga men yangi odamman qishloqda, qo'limda agronomlik diplomidan boshqa hech narsa yo'q. Tajriba qayoqda deysiz! Esimda, besh yil davomida besh-olti martagina bir oy-bir oydan uchxozda bo'lganmiz. Qolgan vaqtlarda institutdan gashqari chiqilmagan. Shuning uchun ham bepoyon uzumzorni ko'rib vahmim keldi.

- Cho'chimang, o'g'lim, - dedi Saksonboy ota ko'zim javdirayotganini payqab. - Qo'rqqan ko'zga qo'sha ko'rinadi. Ko'nikib, o'rganib ketasiz.

Men ishshaydim. O'sha paytdagi o'zimning ahvolimni boshqacha tasvirlay olmayman. O'zining o'zligidan bo'lak hech narsa ko'ziga ko'rinmay, shu qishloqqa kelganiga achinib turgan odam kekxa dehqonning bu gapini qanday kutib olishi mumkin edi?!

- Usmonjon ham yangi kelganida cho'chigan edi, - gapida davom etdi Saksonboy ota. - Unda ahvol hozirgidan ham yomon edi. Keldi-yu, o't bosib yotgan uzumzorga tikilib, xuddi sizdek boshini qashidi. Keyin papiros chekib, xayol surib ketdi. O'shanda unga ham cho'chimang, dedim. Qo'rqqan ko'zga qo'sha ko'rinadi, dedim. Kuldi. Ertasiga o'nta odamni boshlab kelib, menga topshirdi. Bahor edi o'shanda. Endi tok ochayotgan edik. Topshirdi-yu, shular kuzgacha sizda ishlaydi, dedi. Dam sevinaman, dam hayron bo'laman. Qayerdan topdi shuncha odamni deymen.

- Usmon aka asli shu yerlikmi? - so'radim gapini bo'lib.

- Ha, - dedi Saksonboy ota. - Shu yerda tug'ilgan. Lekin ketib qolgan. Qaytib kelganiga yildan oshib qoldi. Ilgari raykomda ishlagan. Ancha ishlagan. Keyin obkomga olishdi. Undan oldin nima qilgan, bilmayman. Eshitishimcha, Toshkentda katta xizmatda ham bo'lgan. Yakkachinor gazetaga tushgandan keyin bu yoqqa keldi.

- Gazetaga nega tushadi?

- Eshitmaganmisiz? - Saksonboy ota boshini chayqab, moshkichiri soqolini bir-ikki siladi-da dedi: - O'tgan yili kolxozimizni butun oblastga ko'tarib urishdi. Bu shunday bo'ldi. Kolxozga qandaydir yo'l bilan Egamqul Toshmatov degan odam rais bo'lib qoldi. Urushdan keyin o'zini eplolmay, inqillab-sinqillab turgan kolxoz u kelganidan keyin birdaniga orqaga tashlab yubordi. Yulg'ichlar ko'paydi, boshimiz qarzga botib ketdi. Bir-ikki shikoyat qilib, rayonga bordik. Foyda bermadi. Keyin gazetga yozdik. Bir yigit o'n kuncha qishloqda bo'lib, boplab yozdi. Egamqul qochdi. Hali ham qorasini ko'rsatmay qochib yuribdi. Shundan keyin bir oy o'tib, Usmonjon keldi. Baraka topsin, tuzuk. E, o'g'lim, kishida g'ayrat bo'lsa hammasiga o'rganib ketadi. Gap g'ayratda, mehnatda. Cholning gapi ancha dalda bo'ldi. Ishni uzumzordan boshlashga o'zimcha ahd qildim. To'g'ri qilgan ekanman, Saksonboy ota menga ko'p narsani o'rgatdi. Oypopuk xayolimdan ko'tarildi. Ertalab uydan chiqamanu, kechgacha goh Usmon aka bilan, goh o'zim, ba'zida esa Saksonboy ota bilan, Qaydarali aka bilan dalada bo'laman, qirga boraman. Bir xoiada tursak ham Mavlon bilan ba'zan ko'rishmaydigan bo'lib qoldim. Men kelganda u bo'lmaydi, u kelganda men uxlab yotgan bo'laman. Shunday vaqtlarda uy egasi Shahodat xola orqali aloqa qilamiz.

Bir kuni ertalab ishga ketayotganimda Shahodat xola orqamdan chiqib to'xtatdi.

- Bugun bir amallab do'xturxonaga kirarmishsiz, - dedi u sirlil ohangda. - Doktor g'alati dori topgan emish. Tushda kelib, ichib ketarmishsiz.

- Qaydam, - dedim men ishimi ko'pligini bilib.

- Bunaqa demang, - dedi kampir yalinib, - doktor o'tinin so'radi, keyin, kelmasa boshqa uy topsin, dedi.

Kampir kuldi.

- Uy meniki, shu yerda turaverasiz. Ammo lekin o'rtog'ingizning so'zini qaytarmang. Bechora kun bo'yi bir o'zi, zirikadi-da.

Shu payt Mavlonning hovuz labida esnab o'tirgani ko'z oldimga keldi.

- Xo'p, kelaman. Shunday deb ayting, - dedim. Va'daga muvofiq kun tikkaga kelganda, uzumzordan chiqib choyxonaga keldim.

Medpunkt berk edi. Hayron bo'lib so'riga o'tirdim. Shu top choyxonaning tomida mallasoch bolani ko'rib qoldim. U daryo tomonga o'girilib olib, hadeb do'ppisini silkitardi. Ko'p o'tmay, u tushdi va bir choynak choy olib kelib:

- Mavlonboy akam hozir keladilar, - dedi va ma'nodor kulib qo'ydi.

Haqiqatan ham chorak soat o'tar-o'tmas Mavlon keldi. Ko'lida chelak. Nuqul jilmayadi.

- Tinchlikmi? - so'radim hech narsaga tushunmay. - Kanaqa dori topdingiz?

- Mana, - dedi Mavlon chelakni oldimga qo'yib. - Sizni ko'rolmay shuni o'ylab topdim. Ishlash ham evi bilan-da.

Chelakka qaradim. Ichida bir necha baliq bor edi.

- O'zim tutdim! - dedi Mavlon g'urur bilan. - Hozir qovuramiz.

- Xo'p, siz qovurasiz, - dedim. - Men nima qilaman?

- Dam oling. Charchagandirsiz? - dedi doktor. - Bugun kun juda isib ketdi.

Kun haqiqatan ham issiq edi. Havo dim. Daraxtning uchi qimirlamaydi. Churq etgan tovush yo'q. Qush-qumursqa ham aftidan o'zini panaga olgan edi. Bunday kunlar tog'li joylarda kamdan-kam bo'ladi.

- Cho'milib kelaman, - dedim men.

- Mayli, - dedi doktor.

Qishloqqa kelganimdan beri daryo tomonda bo'lmagan edim.

- Lekin qolib ketmang, tez qayting, - dedi doktor.

- Yarim soatda kelaman, - dedim men.

Zarafshon juda tinch edi. Qayoqqa qarab oqayotgani bilinmasdi. Yechinib, shamol bo'lmasa ham kiyimlarimning ustiga tosh bostirdim-da, suvga sho'ng'idim. Shundagina daryoning katta kuch va tezlik bilan oqayotganini sezdim. Studentlik yillarimda bolalar bilan komsomol ko'liga borib musobaqa o'tkazardik. Shunda suzishning bir nechta turlarini o'rganib olgan edim. Oqimga qarshi batterflyay usulida suzib ketdim. Bir mahal bunday qaragam, ancha joyga borib qolibman. Qirg'oqqa chiqdim. Yana boyagi joyga borib tushmoqchi bo'ldim. Borganimda esa, aynidim. Suv muzdek, juda cho'milishli edi. Olis-roqdan oqib kelmoqchi bo'ldim. Birpas qirg'oq bo'ylab yurib, olmazorga kelib qoldim. Ro'paramda, shunday suvning labida katta xarsangtosh turardi. Shuning ustidan kalla tashlamoqchi bo'lib, endi oyoq qo'yuvdim, nima bo'ldi-yu, shalop etib suvga ag'darilib tushdim. Sho'x kulgi qulog'imga kirdi. O'zimni eplab olib, tagi pastroq joyga o'rtnashdim-da, qirg'oqqa qaradim. Sershox olma tagida Oypopuk o'tirardi. Egnida o'sha men uyida ko'rgan no'xat gulli ko'ylagi, boshida o'sha iroqi do'ppi. U o'zini kulgidan to'xtatolmasdi. Nima qilishimni bilmay qoldim. Qulog'im sholg'omday qizarib ketgan, joyimdan qimirlamayman. Buni sezdi shekilli, tizzasidagi kitob bilan yuzini yashirib, kulgisini to'xtatdi. Noqulay ahvoldan qutulishni o'ylab, savol tashladim.

- Nima o'qiyapsiz?

- "Dengiz sirlari"ni, - dedi Oypopuk hozirjavoblik bilan. Aftidan, u ham bu ahvoldan meni qutqarmoqchi edi. - O'qiganmisiz?

- Yo'q, - dedim pushaymon bilan. O'qish u yoqda tursin nomini ham eshitmagan edim. - Sir ko'p ekanmi dengizda?  
- Bilmadim, - dedi u jilmayib. - Endi boshladim. Lekin halitdan yoqmayapti. Urush haqida bo'lsa kerak. Urushni yomon ko'raman. Oypopuk birdaniga jiddiylashdi. Lablari yumilib, chap ko'zi sal qisildi:  
- Kim yaxshi ko'radi urushni? - dedim men. - Hamma yomon ko'radi.  
- Hech kim menchalik yomon ko'rmaydi, - dedi Oypopuk e'tiroz bildirib bo'lmaydigan ohangda. Keyin birdan kulib yubordi. - Siz yaxshi suzar ekansiz!  
Quloqlarim yana qizarib ketdi.  
- Kulmang, - dedim yalingansimon.  
- Kulayotganim yo'q, - dedi Oypopuk. - Chindan aytyapman. Huv anavi yerda suzganingizni ko'rdim. Men sira shunday suzolmayman.  
- O'rgatib qo'yaymi? - dedim gapim unga qanday botishini o'ylab o'tirmay.  
- Rahmat, - dedi u va negadir qizarib ketdi. - Boring, sovuq qotgandirsiz.  
Ketgim kelmasa ham uning so'zini qaytarolmadim. Buning ustiga vaqt ham bo'lib qolgan edi. Shunday bo'lsa ham:  
- Shu yerdaligingizni bilsam, cho'milmasdim, - dedim uni gapirtirish uchun.  
- Nega? - hayron bo'lib so'radi u.  
- Yana kulasiz-da.  
Oypopuk kuldi. Men ham unga qo'shildim.  
- Boring, sovuq qotib ketgandirsiz.  
- Kulmaysizmi?  
- Yo'q, kulmayman.  
Men bir sho'ng'ib suzib ketdim.  
- Biznikiga keling! - deb qichqirdi anchadan so'ng orqamdan u.  
Qo'l silkidim.  
- Talqon yeb sizni suvga yuboradigan ekan! - dedi Mavlon choyxonaga kelganimda. - Qani, manavi piyozni to'g'rang. U qo'limga ikkita tuxumdek piyozni tutqazib, o'zi oshxonaga ketdi.  
Ko'p o'tmay, qip-qizil qilib, butun-butun qovurilgan baliqlar keltirildi. Mavlon o'zida yo'q xursand edi.  
- Endi bu yoqqa qarang! - dedi u piyozga murch sepib aralastirgach. - Tobingiz qalay?  
- Nimaga? - dedim men.  
- Mana bunga-da, - u hovuzdan atir shishaga o'xshagan idishni tortib oldi va sirli ohangda dedi: - Qo'lbola. To'qson oltitalikdan. Ishtaha bilan ovqatlandik. Mavlon ozgina ichib olib, odatdagidek gapga tushib ketdi.  
- Bu yerda nima bor bizga? Ishmi? U ham sizda bor, menda yo'q. Oling, tuzuk-tuzuk oling. Yo ketaman, yo boshqa ishga o'tib ketaman. Bu yer menga to'g'ri kelmaydi. Qalay, baliq tuzukmi?  
Bosh irg'itib, maqtab qo'ydim. Mavlon yana gapga tushib ketdi. Ammo nima deganini eshitmadim. Xayolim daryo labida bo'lgan uchrashuvda edi, qulog'im ostida hamon "Biznikiga keling!" - degan qo'ng'iroq ovoz jaranglardi.  
- Oypopukni bugun ko'rdingizmi? - so'radim birdan doktordan.  
- Qayerda? - dedi u. Daryoga ishora qildim.  
- Yo'q.  
Doktoring bu gapi negadir menga yoqib ketdi. Ko'z oldimda Oypopukning kulib turgan chehrasi paydo bo'ldi.  
- Quying, doktor! Qo'lboladan quying! - dedim zavq bilan.  
...Salqin tushganda dalaga yo'l oldim. Xayolim hamon daryo labida edi. Nima bo'ldi menga? Nega bunchalik shodman? - derdim o'z-o'zimga.

4

O'sha kuni kechasi tush ko'rdim. Ikki tomoni tog' bilan o'ralgan ko'm-ko'k adir emish. Adirning o'rtasiga qizil gilam to'shalgan. Uning ustida men oq ot minib turgan emishman. Qayerdandir, olisdan qo'shiq eshitilardi. So'zlarini anglamasam ham, uning menga bag'ishlanganini bilar emishman. Birdan osmonni qora bulut bosdi, momaqaldiraq guldirab chaqmoq chaqdi. Tagimdagi ot tipirchilab qochmoqchi bo'ldi. Ammo men yuganidan mahkam ushlab, qadam bosgani qo'ymadim. Hammayog'im ivib ketdi, gilam qayoqqadir yo'qoldi, qo'shiq tindi. Hammayoqni mudhish sukunat qopladi. Ko'zlarimni yumdim. Bir mahal bunday qaragam, havo ochilib ketibdi. Oldimda esa... oldimda katta qizil gilamni, xuddi boyagi ostimdagidek gilamni yozib, Oypopuk turibdi. Rostini aytsam, o'sha kuni o'zimning tushimdan o'zim cho'chib ketdim. Nega cho'chidim, bilmayman. Biroq bir narsa ravshan edi. Men Oypopuk haqida ko'p o'ylaydigan bo'lib qolgan edim. Bu sevgimi, yo shunchaki yigitlik sho'xligimi, aniqlash qiyin edi o'shanda. Sevgi desam, uning bunchalik tez paydo bo'lishiga ishonmasdim. Sho'xlik desam, o'zimni ixshi bilaman, sho'xlikka tobim yo'q edi. Lekin bordi-yu shunday bo'lib qolsa, qizga xiyonat qilmaslik, uni hech parsaga ishontirmaslik lozim edi. Shunday xayollar bilan kun bo'yi nasha chekkan odamday gangib yurdim. Qayerlarga bordim, nimalar qildim, kimlar bilan gaplashdim - yaxshi bilolmayman. Lekin olmazorga o'tayotib, osma ko'prikan dumalab tushay deganim hali-hali ko'z oldimda. Uyga odatdagidan ertaroq qaytib, karavotga cho'zildim. Shahodat xola ovqat olib kirdi.  
- Moshxo'rda, bolam, - dedi u stolga bug'i chiqib turgan kosani qo'yib. - Achchiq-achchiq ichib oling. Butun glrmdoridan ikkita solganman. Mazangiz yo'q ko'rinadi.  
- Sal bosh og'riyapti, - dedim gapni ko'paytirmaslik uchun. Kampir bir gapga tushib ketsa, to'xtatish qiyin edi. Baxtga qarshi bu gal ham shunday bo'ldi.  
- O'zim ham aytdim-a, - dedi u stulga yaxshilab o'tirib olib. - Ko'zlaringiz kirtayib turibdi. Issig'ida ichib oling. Keyin o'ralib yotsangiz, g'uborlaringiz chiqadi-qo'yadi tsrlab. Sobirim omon bo'lg'ur, doim shunaqa qilardi. Qilmaganiga qo'ymasdim-da o'zim ham. Sizga o'qib berdimmi-yo'qmi, anov kuni xatida, moshxo'rdangizni sog'indim oyi, depti. Musofir yurtda moshxo'rda bo'larmidi!  
Ingrab yubordim.  
- Tura qoling, bolam, - dedi u gapidan to'xtab, - doktor kelgunlaricha ichib oling, zora o'zingizga kelib qolsangiz. Bosh og'rig'i o'lsin, odamning tinka-tinkasini quritib yuboradi. Bir-ikkita dori ham ichib yuboring. Dori ham foyda beradi. Mavlonboy yangi kelganlarida men shunaqa bo'ldim. Ikki chakkam yorilib ketay-yorilib ketay dedi...



Kampir yana gapga tushib ketdi. Boshim rostdanam og'rib qolmasmikim, deb cho'chib turgan edim, Mavlon kelib qoldi. Ancha yengil tortdim.

- Qaynonangiz suygan ekan, bolam-ey, birga icha qolinglar. Turing, bolam, - dedi Shahodat xola xonadan chiqayotib. Achchig'im chiqqanidan kulib yubordim-da, o'rnimdan turdim.

- Ha, tinchlikmi? - so'radi Mavlon beixtiyor jilmayib.

- Kampir tushmagur miyamni qoqib, qo'limga beray dedi, - dedim.

Shu tob Shahodat xola yana bir kosa moshxo'rda olib kirdi. Qoladimi, deb qo'rqib turuvdim, yo'q, tez chiqib keta qoldi.

- Icha qolinglar. Biram shirin bo'ptiki! - dedi ketayotib.

Mavlon birdaniga ovqatga yopishdi.

- Bugun tuzuk, - dedi u og'zini to'ldirib. - Ikkita kasal ko'rdim. Ikkalovi ham gripp. Bittasi og'irroq. Bilasizmi kim?

- Yo'q, - dedim men.

- Raisning qizi. Oypopuk.

- Oypopuk?

- Ha, - dedi Mavlon parvosizlik bilan. - Nima, uning kasal bo'lishi mumkin emasmi?

- Axir, kecha... - dedim men hayron bo'lib, lekin gapim og'zimda qoldi. Daryo labidagi uchrashuvni aytgim kelmadi.

- Ha, xuddi kecha shamollab qolibdi, - dedi Mavlon. - Kechasi bilan isitmalab chiqibdi. Hozir ham temperaturasi qirq. Usmon akaning vahmi uchib ketibdi. Bitta qiz-da. Arzanda. Shaharga yubormoqchi edi, kerakmas dedim; nahotki oddiy grippni shu yerda tuzatib bo'lmasa! Rozi bo'ldi. Ichsangiz-chi, ovqat sovib qoldi.

- Nima qilib shamollabdi? Mavlon kuldi.

- Cho'milibdi daryoda. Yangicha suzishni o'rganmoqchi bo'libdi. Kechqurun shamol turdi-yu, o'shanda ham daryoda ekan.

Men tilimni tishladim.

- Yotibdimi?

- Yotibdi. Ancha yotadi. Hamma kasalning asosiy davosi - qimirlamay yotish. Bu qonun. Un kuncha yotadi. Ha, o'ylanib qoldingiz? Iching.

Bir-ikki qoshiq ichib, joyimga borib yotdim. Lekin uyqu kelmadi. "Bu qanaqasi bo'ldi? - derdim o'zimcha. - U mendan kulmagan ekan-da. Kulsa, mendaqa suzishni o'rganmoqchi bo'larmidi? Shunaqa suzish nega kerak bo'lib qoldi unga? Nahotki, meni yoqtirib qolgan bo'lsa? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Meni bilmaydi-ku! Balki, shunday, o'zicha o'rganmoqchi bo'lgandir?"

- Doktor, - dedim fikrim chalg'ib ketganini sezib.

- Labbay? - Mavlon men tomonga o'girildi.

- Oypopuk qanaqa qiz?

- Yaxshi qiz, - dedi u hayron bo'lib. - Nima edi?

- Sizga yoqadimi?

- Yo'q.

Nega?

- Me'yor yo'q unda. Bir qarasangiz, charaqlagan kun, bir qarasangiz, qovog'idan qor yog'iladi. Bunaqalar menga yoqmaydi. Mana, Farida boshqa gap, - dedi doktor tamshanib. SekretarCH qizning ismi Farida edi. - Jahli qirq darajaga chiqib ketsa ham iljayib turaveradi. Ha, aytmoqchi, nima edi?

- O'zim, shunday, - dedim xayol surib.

- Bir gap barga o'xshaydi. Yashirmang, - dedi doktor yonboshlab olib. - Vrachlar sir saqlashni biladi. Aytting.

- Yo'q, hech gap yo'q, - dedim avvalgiday xayolchanlik bilan.

- Sizga yoqadimi?

- Bilmadim, - dedim men.

Rostini aytgan edim. Shunday bo'lsa ham doktorning savolidan negadir yuragim jizillab ketdi. Oypopuk yoqarmidi menga? Bunga javob berish qiyin edi.

Ertalab idoraga chiqdim. Usmon aka ikkalamiz qirga borib keladigan edik. Besh gektar yerdagi beda shu paytgacha o'rilmabdi.

Brigadir pravleniye majlisida nimadir deb g'o'ldiradi. O'zimiz borib ko'rmoqchi va o'sha yerning o'zida nima ekishimizni maslahatlashib kelmoqchi edik.

Idorada rais yo'q edi. Farida telefon qilmoqchi bo'luvdi, yo'q, dedim. Oypopukning kasali esimga tushdi. M.shlon ham o'sha yerda edi. Ancha kutdim. Bir mahal rais keldi. Rangi so'lg'in, uxlamaganga o'xshaydi. U kechirim so'rab, Faridaga, tushga qaytib kelaman, deb bir qancha topshiriq berdi-da, otga mindi. Yo'lga tushdik. Msn Oypopukning sog'lig'ini so'ramoqchi bo'lib, bir-ikki mmrta og'iz juftladim, lekin botinolmadim, uyaldim. Qishloqdan chiqquncha jim bordik. Usmon aka otning tizginini bo'sh qo'yib, qo'lini egarning qoshiga tirab olgan edi. Sezib turibman, charchagan. Ko'zlari ba'zan o'zidan-o'zi yumilib ketadi. Olmazordan o'tdik. Usmon aka papiros tutatdi. Og'zi-burni aralash kuch bilan tutun chiqarib, menga o'girildi.

- Uyqu bosyapti, - dedi gunohkorona jilmayib. - Kechasi bilan mijja qoqmay chiqdim. Popukning tobi yo'q.

- Og'irmi shunaqa? - so'radim sekin.

- Yo'q, og'irmas, - dedi rais. - Lekin qo'rqitib yubordi. Yetti-sakkiz yildan beri o'zining ham endi og'rishi. Bilasizmi, uyingizdagi yakkayu yagona odamingiz o'zini noxush sezsa, kayfingiz juda buzilib ketar ekan. Ayniqsa, yoshingiz o'tib qolganda. Kechqurun kelsam, uy jimjit. Kunduzi fermada ham ko'rganim yo'q edi. Hayron bo'ldim. Ilgari eshiqdan kirishingiz bilan vang'illab radio gapirardi yo plastinka qo'yilardi. O'rtoqlarinikidadir, deb ichkariga kirdim. Yotibdi. Nuqul aksiradi. Doktorni chaqirdim. Isitmasi qirq. Qandaydir yangicha suzishni o'rganmoqchi bo'pti. Kimga kerak ekan bu!

Qizarib ketganimni sezdim-da, ko'zimni raisdan olib qochdim.

U gapida davom etdi.

- O'zi ancha chayir. Shamol turdi-ku, shunda og'rib qolgan-da. Og'irmas. Mavlonjon ham shunday deyapti. Lekin men juda qo'rqib ketdim. Bir marta shunaqa, yomon yurak oldirib qo'rganman. Ancha bo'ldi bunga. O'n yashar bola edi Oypopuk o'shanda. Nima bo'ldi-yu, bir kechada hamma tishi tushib ketdi. Qo'l-oyog'i shishib, mayda-mayda pufakchalar hosil bo'ldi. Toshkentda ishlardim. Bitta tanish oshnam ishlaydigan klinika bor edi. Shu yoqqa olib bordim. Vrachlar ko'rib, kasalxonaga yotqizishdi. Uch oy yotdi. Uch oy mening uchun uch yil bo'lib ketdi. Bo'sh qoldim, kasalxonaga yuguraman. Ertalab, kechqurun-ku, so'zsiz. Bir oycha har borganimda, ana ketadi-mana ketadi, degan gapni eshitib yurdim. Yo'q, tuzalib ketdi. O'shandan beri yurak o'ynog'imani. Lekin



hozir o'zini eplab olgan. Doktorning aytganini qiladi. Ilgari dori ichmay xunob qilardi.

Usmon aka kuldi.

- Kecha hatto ukolga ham rozi bo'ldi. Ammo rosa afti burishdi.

- Kelinoyimlar yo'qmilar? - dedim birdan men. Nega bunday deb so'radim, o'zim bilmayman. Lekin bu savol menga ko'p narsani oydinlashtirdi.

Usmon aka savolimni eshitib, avval o'ylanib qoldi, keyin esa, yangitdan papiros tutatib, chuqur tortdi-da, dedi:

- Siz menga qiyin savol berdingiz. Buning tarixi katta. Mayli, sizga aytsam, ayta qolay. Rosti, buning hech qanday siri yo'q, lekin duch kelgan odamga gapirishni yo'qirmayman. Odamlar bir xil emas. Ba'zilar to'g'ri tushunadi, ba'zilar noto'g'ri. Siz tushunishga harakat qilarsiz, deb o'ylayman. Xo'p, bo'lmasa eshiting. Yo'l olis, zerikmaysiz ham.

5

- Men uylanmaganman, - dedi anchadan so'ng u. - Buning sabablari ko'p. Yaxshisi bir boshdan aytib beraqolay. Urush boshlanganda men endigina institutni bitirgan edim. Asli o'zim tarixchiman. Qishloq xo'jaligi ikkinchi mutaxassisligim.

Diplomimni olgan kunimoq voyenkomatga chaqirishdi. Uch kundan keyin esa, frontga jo'nadim.

Mening hech kimim yo'q, bolalar uyida tarbiyalanganman. Otam ham, onam ham yoshligimda o'lib ketgan. Qarindosh-urug'larim bormi-yo'qmi, bilmayman. Rosti, unchalik ko'm qidirganim ham yo'q. Bolalar uyi - bor qarindosh-urug'im, o'z uyim edi.

Men tushgan polk uch oycha Saratovda mashg'ulot o'tkazib, Ukrainaga yuborildi. Kiyev uchun jang qildik. Mendaqa oliy ma'lumotlilar polkda kam edi. Shuning uchun ikki oy o'tar-o'tmas rotaga komandirlik qila boshladim. Lekin frontda ko'p bo'lganim yo'q, chekinayotganimizda og'ir yarador bo'lib qoldim. Dushman bombasi shunday blindaj ustiga tushdi. Uch-to'rt joyimga oskolka tegdi. Ichkariga jo'natishdi. Ikki oy gospitalda yotdim. Shundan keyin mepi butunlay jo'natib yuborishdi. Gospitalda men bir hamshira bilan tanishib qoldim. Operatsiyadan chiqib, ko'zimni ochsam, oldimda chiroyli bir qiz menga tikilib o'tiribdi. Uning oppoq yuzi, bilinar-bilinmas sepkil toshgan kichkina burni, ayniqsa doim kulib turadigan osmopdek tiniq ko'm-ko'k ko'zlari hali-hali ko'z oldimdan ketmaydi. Tabiiy, men uni yaxshi ko'rib qoldim. Baxtinga u ham mendan o'zini olib qochmadi. Bo'sh qoldi deguncha men yotgan palataga kelardi. Men ham uning kelishini sabrsizlik bilan kutardim. Kelganida esa, gapga tushib ketardim. Gapimiz sira ado bo'lmasdi.

Yaxshi narsalar haqida gaplashsak, baravar shodlanar, yomon narsalar haqida gaplashsak, baravar nafratlanardik. Nalarimda, biz tilga olmagan, hayajon bilan muhokama qilmagan biron narsa dunyoda qolmagan edi. Biz urushdan keyin to'y qilishga ahd qildik. Xayrlashadigan kunimiz u o'zining eng sevimli va menga yoqqan ukraincha ko'ylagini kiyib keldi. "Ko'rishgunimizcha meni shunday eslab yur", - dedi. Ancha joygacha kuzatib qo'ydi. Biz xat orqali aloqa qilib turishga ahd qildik. Urushdan keyin Olesya, uning ismi ham chiroyli edi, Toshkentga kelishga va umrbod shu yorda men bilan yashashga va'da berdi. Urush ko'p cho'zilmaydi, dsb o'ylagan edik o'shanda biz. Keyin xayrlashdik. Men uni boshqa ko'rmadim. Toshkentga kelganimda ichki ishlar ministriligiga ishga yuborishdi. O'sha paytlari mening uchun qayerda ishlashimning ahamiyati yo'q edi. Bironta ish bilan mashg'ul bo'lsam bo'ldi, deb o'ylardim o'zimcha. Axir ayting, ancha ishdan chiqqan sog'liq bilan tuzukroq ish tanlashim mumkinmidi?! Ishga tushgan kunimoq Olesyaga xat yozib yubordim. Ammo bir oy o'tar-o'tmas gospitalda boshlig'idan xunuk xabar oldim. Olesya bomba tagida qolib, halok bo'lgan edi. O'zimni yo'qotib qo'ydim. Hech narsa ko'zimga ko'rinmay qoldi. Nazarimda, dunyoning lazzati men uchun qolmagan edi. Unda faqat bitta majruh odam bor, u ham bo'lsa - men edim. Buning ustiga yolg'izlik... Yurakni ezadigan, yorug' kunni ham qora parda orqasidan ko'rsatadigan badbaxt yolg'izlik. Nima qilishimni bilmay, mukkamdan ishga tushib ketdim. Men sizga aytsam, kishini har qanday og'ir ahvoldan qutqaradigan narsa bu mehnat ekan. Uch-to'rt oy ishlab, hayotga boshqacha ko'z bilan qaraydigan bo'lib qoldim. Nima qilmay: korxonalarda bo'lib, poraxo'rlik, aldanchilikni tekshiraymi, yo dezertirlik qilib yurganlarni tutaymi, urush yillari bizga shunday ishlar bilan ham shug'ullanishga to'g'ri kelardi, hamma joyda, hamma narsada o'zinning hayotga kerakligimni tushunib oldim, g'am unutila boshladi. Bir kuni Qashqar mahalladan o'tib ketayotib, bolalar uyiga ko'zim tushib qoldi. Nimadir yuragimni tirnab ketdi. Ichkariga kirdim. Hovlining o'rtasida bolalarga pirojki ulashishayotgan ekan. Birpas qarab turdim. Bolalar navbat bilan tarbiyachi oldiga borib, bittadan pirojki olishar va quvonganlaridan hovlini boshlariga ko'tarib chug'urlashardi. Bir mahal kichkina bir qizcha "Dada!" deb qichqirib yubordi va yugurib kelib, o'zini oyog'imga tashladi. Men to sarosimadan qutulib, qizchani qo'limga olgumimcha, atrofim odamlar bilan to'lib ketdi. Kattalarning chehrasida kulgi, bolalar esa "urra, urra!" - deb chapak chalishardi. Men hayron edim. Qizcha bo'ynimga mahkam yopishib olgan, butun badani titardi. Qo'limga oqib tushgan issiq yosh meni o'zimga keltirdi, uni sekin yerga qo'ydim.

- Yig'lama, qizim, yig'lama, - dedim bo'g'ilib. Lekin uning do'mboq yuziga tirqirab oqib tushayotgan yoshni ko'rib, o'zinning ham ko'zlarim namlanib ketdi.

- Nega hech xat yozmadingiz? Judayam sog'indim, - dedi qizcha o'pkasini tutolmay.

Men yana hayron bo'lib qoldim. Qizcha meni dadasi bilan adashtirayotgan edi. Shu yerda men xato qildim. Uning savoliga yolg'on bo'lsa ham biron narsani bahona qilib, javob berishim kerak edi. Men bo'lsam:

- Oting nima? - deb yubordim.

- Otim? - qizcha baqrayib menga qarab qoldi. Keyin ho'ngrab yig'lab yubordi-da, qochib ketdi.

Shu payt meni ko'rsangiz edi! Oyoqlarim uvishib, rangimda rang qolmagan... Hech kim bunchalik achinarli ahvolga tushmagan bo'lsa kerak. Bolalar tarqalib, hovlida bitta mendan boshqa hech kim qolmadi. Hammayoqni ayanchli jimlik qopladi. Ko'zlarim yana yoshlandi. O'pkam to'lib ketdi. Qimirlamay joyimda turib qoldim. Qancha turdim, bilmadim, orqamdan kimningdir yo'talgani eshitildi. O'girildim. Oltmishlarga borib qolgan bir mo'ysafid hassaga tayanib turardi.

- Hammasini ko'rdim, - dedi u qaltiroq ovozda. - Adashdi. Sizni otam, deb o'yladi. Otasining halok bo'lganini oilmaydi bechora. U jim bo'lib qoldi. Men ham indamadim. Chunki, bu mudhish sukunatning ma'nosi ikkalamizga ham ayon edi.

- Onasi ham yo'q, - dedi u bir ozdan so'ng. - Bir yoshligida o'lgan. Mana, yil bo'ldi, o'gay ona bizga tashlab ketdi.

- Kechirasiz, siz kim bo'lasiz? - so'radim undan.

- Direktorman. Asomiddin Qoriyev. - Mo'ysafid salom berib, qo'lini uzatdi. - Siz kimsiz?

Tanishdik.

- Endi nima qilish kerak, domla? - so'radim maslahat solib.

- Nima qilib bo'lardi?! - dedi u. - Yosh narsa kunikib ketadi. Ammo qiyin bo'ldi, ancha qiyin bo'ldi. Endigina otasini unuta boshlagan edi. Siz otasiga o'xshab ketasiz. Adashtirgani ham bejiz emas. Qiyin bo'ldi, juda qiyin bo'ldi. Ichikib, sog'lig'ini yo'qotishi ham mumkin.

- Olib ketsam nima deysiz? - birdaniga miyamga shu qaror kelib qoldi. Asomiddin aka yalt etib menga qaradi.  
- Olib ketsam? Butunlaymi?  
- Ha, - dedim men.  
- Bilmadim, bilmadim, - dedi u bosh chayqab. - Qaroringiz qat'iymi?  
- Qat'iy! - dedim jiddiy ohangda va qisqa qilib so'nggi yillardagi hayotimni gapirib berdim, yolg'izligimni aytdim.  
- Ixtiyoringiz, - dedi u nihoyat. - Lekin eplay olarmikansiz?  
- Eplayman, bering, - dedim men.  
- Bo'lmasa, o'zidan so'rang. Kimligingizni ayting. Qizi tushmagur juda ziyrak. Besh-olti marta uyingizga olib boring, o'rgansin.  
Keyin olib keting, mayli.

Asomiddin aka shunday deb meni kabinetiga boshladi. Ko'p o'tmay, qizchani olib kirishdi. U meni ko'rib, uyalib ketdi. Bag'rimga bosdim. Nimalarnidir deb, yupatdim. Ko'kragimdagi ordenni olib qo'lga berdim. Ancha o'ziga keldi.

- Dadamlardayam shunaqa orden bor-a? - dedi jilmayib.  
- Ha. Bittamas, ikkita, - dedim. - Dadang juda botir odam.

Keyin:

- Yur, uyga olib ketaman. Ancha suratlarim bor, ko'rib kelasan, - dedim.  
- Xo'p, - dedi.

Uyda bor narsalarni dasturxonga tashlab, uni mehmon qildim. Lekin urush yillari, uyda nima ham bo'lardi, deysiz? Ikki-uch burda non, uch-to'rt chaqmoq qand. Menga invalidligim uchun ozgina oq non ham qo'shib berishardi. Qizcha shu nonni yedi. Ozgina osh ham qildim. Boshim osmonda edi. Axir o'zingiz o'ylab ko'ring, bir yildan beri huvillab yotgan uyda bola tovushi yangraydi-yu, boshim osmonga yetmaydimi?! Lekin qorong'i tushganda u ketamanga tushib qoldi. Aldadim, yalindim, foyda bermadi. Keyin o'zim ham zo'rlamadim. Asomiddin akaning gaplari esimga tushdi. Eltib qo'ydim. Lekin kunda o'sha yerda bo'laman, ishdan keyin esa, bir necha soatga uyga olib kelaman, keyin yana eltib qo'yaman. Bir oycha shunday qildim. Qizcha haqiqatan ham, Asomiddin aka aytgandek, ziyrak edi. Qorong'i tushdimi, tamom, ketaman, deb turib oladi. Bir oydan keyin qo'rqib ketdim. Menga o'rganmasa nima qilaman? Avvallari unga achinib yursam, endi o'zimga achina boshladim. Chunki, usiz turolmasligim ravshan bo'lib qolgan edi.

Asomiddin akaga yana maslahat soldim U bir-ikki kun kelmaslikni aytdi. Shunday qildim. To'rtinchi kuni chidolmay, bolalar uyiga bordim. Qizcha meni ko'rib yugurib keldi-da, bag'rimga o'zini otdi. Shunday qilib, Oypopuk uyimga butunlay keldi. Men bolalik bo'lib qoldim.

Men sizga aytsam, hayotim shundan keyin o'zgarib ketdi. Tashvishim ortdi. Bu tashvish qandaydir quvonchli, orzu-umidlar to'la tashvish edi, otalik tashvishi edi. Lekin meni hamon bir narsa qiynaydi: Oypopuk ko'pincha deraza oldiga o'tirib olib xayol surar, otasini so'rardi. Dadang olisda, u yoqdan xat yozib bo'lmaydi, urush tamom bo'lsin, o'zi keladi, deb ovutardim. Urush tamom bo'lgan yili u oltinchi sinfga o'tdi. Asomiddin aka bilan maslahatlashib, rostini aytishga qaror qildik. U katta bo'lib qoldi, aytsangiz bo'ladi, dedi Asomiddin aka. Aytdim! Uning o'shanda qanchalik qiynalganini ko'rsangiz edi?! Ikki-uch kun ichida ko'zlari kirtayib, cho'p bo'lib qoldi.

Usmon aka og'ir xo'rsindi. Keyin yo'lga qarab qo'yib, hali ancha borligiga ishonch hosil qilgach, papiros tutatdi-da, gapida davom etdi. Men xuddi shimol afsonasida qorbobo bir umrga muzlatib ketgan boladek otning ustida qimir etmay borardim.

- Shunday qilib, ikki-uch kun ichida cho'p bo'lib qoldi. Hech parsas yemaydi, hech narsa ichmaydi, derazaning oldiga o'tirib olib, nuqul xayol suradi. Kechalari esa, menga bildirmay yig'lab chiqadi. Lekin men sizga aytsam, dunyoda odamdek baquvvat maxluq yo'q ekan. Odam hamma narsaga chidar ekan, hamma narsaga ko'nikar ekan. Kunlar, oylar o'tdi, Oypopuk ham sekin-sekin o'ziga kela boshladi. Avvalgi quvnoqligi oz bo'lsa ham qaytdi, yuzlariga qon yugurdi. Erkin nafas ola boshladim.

Yettinchi sinfni a'lo bitirib, shahodatnoma olganda ziyofat qilib berdim. Hamma o'rtoqlarini, o'qituvchilarini chaqirdim.

Asomiddin aka ham keldi. O'yin-kulgi, muzika uyni tutib ketdi. Kechqurun esa, hamma ketgach, Oypopuk meni birinchi marta rostakamiga "dada!" deb chaqirdi. Men uchun hamma narsadan shirin va aziz bo'lgan bu so'zga u bor muhabbatini va minnatdorчилигинi qo'shib aytdi. Shunda men uning uchun eng mehribon odam ekanligimni tushundim. Boshim osmonga yetib ketdi. O'sha minutda dunyoda mendan baxtliroq odam yo'q edi. Sevinchim ichimga sig'may, uni mahkam bag'rimga bosdimu, yig'lab bordim. Bu - ko'p yillardan beri yuragimda zardob bo'lib yig'ilgan g'am, alam, o'kinch yoshlari emas, yo'q, bu - katta baxtga ega bo'lgan odamning cheksiz sevinch yoshlari edi. Bu yoshlar bir zumda yurakdagi hamma g'uborlarni yuvib tashladi. Butun jahon ko'z oldimda yorishib, jami yaxshiliklar yer yuziga kalqib chiqqandek bo'ldi. Ota-bola kelajak rejalarini tuzib, tong ottirdik. Uch yildan beri Samarqanddamiz. O'tgan yili bu yerga ko'chib keldik. Butunlay ko'chib keldik.

Usmon aka jimib qoldi. Qalbimni qandaydir iliqlik qopladi. Shimirib nafas oldim. Havo xuddi qalbimdagi iliqlik singari yoqimli edi. Atrofga suq bilan qaray boshladim. Hamma narsa olisda, baland cho'qqilar ustida tutundek buralib ko'tarilayotgan bulutlar ham, yostanib yotgan ko'm-ko'k adir ham, daryo ham, tosh ham, hamma-hamma narsa ko'zimga xuddi boshqacha - go'zal va orombaxsh ko'rinish ketdi. Hamma narsada hayot qulf urardi. Hayot! U naqadar murakkab va naqadar ulug'! U insonni go'zal va olijanob sehrigar kabi o'ziga chorlaydi, erkalaydi. U inson uchun nimalar qilmagan, yana nimalar qilishi mumkin emas!

- Endi nima uchun kelinoyingiz yo'qligini tushungandirsiz? - dedi Usmon aka xayolimni bo'lib.

- Ha, - dedim.

- Qizim - bu mening hayotim, - dedi u o'ychan holda va yo'lga bir qarab qo'yib, otiga qamchi bosdi.

Usmon akaning xunob bo'lganicha bor ekan. Bedazor - bedazor emas, yovvoyi o't bosib yotgan tashlandiq joyga o'xshar edi.

Ayrim yerlarda sarg'ayib chaqirtikanak ham o'sib yotibdi.

Buni ko'rib Usmon akaning qovoqlari osilib ketdi.

- Ko'ryapsizmi? - dedi u otdan tusharkan. - O'tgan yili qirning bag'ridan tortib olgan edim bu yerni. Qancha kuch sarf bo'lgan, qancha kun ovora bo'lingan.

- Lekin yer kuchli ekan, - dedim men.

- Yer kuchli, - raisning chehrasi yorishgandek bo'ldi. - Ammo bekor yotibdi. Tok ekish kerak. Yangi kelganimda shunday o'ylab qo'ygan edim. Nima deysiz?

Men nima derdim? Ma'qul, dedim.

- Kamida yigirma tonnadan hosil ko'tarish mumkin. Yigirma tonna-ya! - gapida davom etdi rais. - Shu yiliyoq ekamiz! Uzingiz bosh bo'lasiz. Birinchi katta ishingiz shu bo'lsin.

- Ma'qul, - dedim yana men negadir o'zimdanda uyalib. Shu payt brigadir keldi. U boshini qiyiq bilan bog'lab olgan edi. Usmon akaning yana qovoqlari osilib ketdi.

- Kombayn chaqirdingizmi? - so'radi u salomlashishni ham unutib.

- Ha, chaqirdim, - dedi sekingina brigadir.

- Nima qildi? - Usmon aka qiyiqqa ishora qilib so'radi.

- Kechadan beri issig'im oshib turibdi.

- Dori-pori qildingizmi?

- Yo'q, o'zi bosilib qolar.

Bunaqa emas-da. Doktorga boring. Doktor kasal yo'qligini pashsha qo'rib o'tiribdi. Hoziroq boring. Aytganday, - Usmon aka bedazorning etagidagi omonatgina qurilgan chaylaga qarab so'radi, - o'roq bormi?

- Bor, nima edi? - brigadir hayron bo'ldi.

- Olib keling, - Usmon aka kitelini yechib, o't ustiga tashladi. - Kombayn kelguncha o'rib turamiz. Vaqt ketyapti.

- Qo'ying, o'zimiz qilamiz, - dedi brigadir qizarib - Uyalitirmang.

- Olib keling, olib keling!

Brigadir, nima qilay, deganday menga qaradi. Indamadim.

- Erinchoq odamni ko'rsam, jinim qo'zg'aydi, - dedi Usmon aka brigadir ketgach. - Erkak kishi degan tinib-tinchimasa-da!

Saksonboy otaning shunisiga qoyil qolaman.

- Mana, - brigadir ketmon sopi qoqilgan o'roqni olib kelib, raisga uzatdi.

- Yaxshi, - dedi Usmon aka o'roqqa tikilib. - O'tkir ekan. Xo'p, siz endi qishloqqa boring. Mavlonga uchrashing.

Brigadir javdirab, anchagina dam raisga, dam menga qarab turdi-da, keyin boshini qashiganicha bitta-bitta yurib ketdi.

Usmon aka yaxshigina o'roqchi ekan. Og'zim ochilganicha uning epchil harakatlariga qarab qoldim. Usta qayiqchi qo'lida eshilgan eshkakdek, uning qo'lidan o'roq ham bir ohangda "shirt-shirt" etib tortilar va har tortilganda bir bog'lam-bir bog'lam g'umay, urug'lagan beda bir tekisda yerga qularadi va g'alati chuchmal hid dimoqqa urilardi.

Ancha vaqt o'tdi. Usmon aka jiqqa terga botdi. Ammo, parvo qilmadi. Peshonasini bilagi bilan sidirib tashlayverdi. Uyalib ketdim.

Qo'lidan borib o'roqni oldim. Birinchi tortishimdayoq oyog'imni tilib ketishiga sal qoldi.

- Hechqisi yo'q, - dedi Usmon aka, - o'rganib ketasiz, g'ayrat bo'lsa, bas. G'ayrat bo'lsa, odam uddalay olmaydigan ish yo'q.

Shu kuni oqshomgacha qirda qolib ketdik. Ammo mening harakatlarim to'rt-besh bog' pichanga to'g'ri keldi, xolos. Bunga faqat uquvsizligim emas, boshqa sabab ham bor edi. Xayolim qishloqda, Oypopukda edi. Shuning uchun ham qishloqqa kirishim bilan medpunktga yugurdim. Ammo u berk edi. Choyxonaga kirdim.

- Mavlon akang qani? - so'radim Bahodirdan.

- Hozir ketdilar, - dedi u har galgidek hozirjavoblik bilan.

Uyga chopdim. Doktor ovqatlanib o'tirardi.

- Oypopuk tuzukmi? - so'radim hovliqib.

- Tuzuk, - beparvo gapirdi Mavlon, - issig'i tushdi. Nima edi?

Javob bermadim. Yuragim ancha taskin topgan edi. Charchaganim sezildi. Apil-tapil ovqatlanib, yotdim. Yotdim-u, uyquga ketdim.

6

Ertalab nonushta qilayotganimizda doktor kechagidek parvosizlik bilan dedi:

- Aytganday, sizni Oypopuk so'radi.

- Meni?

- Ha, sizni.

- Nima dedi?

- Qiz bola nima derdi? Sog'lig'ingizni so'radi. Yaxshi yuribdilarmi, dedi. Qishloqqa o'rganyaptilarmi, dedi.

- Siz nima dedingiz?

- Siz so'raganingizdan beri o'rganyaptilar, dedim. - Mavlon kuldi. - Faqat kechalari toshkentlik qizlarning ismlarini aytib, uyqusiraydilar, dedim. Kuldi.

- Nima qilardingiz yolg'on gapirib?

- Uni kuldirish kerak edi-da, - dedi Mavlon jilmayib. - Lekin sizni jindek qurbon qildim. Nima bo'пти?

Usmon akaning hikoyasi meni ostin-ustin qilib yuborgan edi. Doktorning gaplari unga qo'shimcha bo'ldi. Borishga qaror qildim.

Qiladigan ishlarim ko'p bo'lishiga qaramay, doktor bilan birga yo'lga tushdim. Yuragim shunchalik kuchli dukillab urardiki, raisnikiga qanday qilib yetib kelganimni sezmay qoldim. Oypopuk deraza qarshisiga qo'yilgan karavotda yotardi. Bo'ynigacha ko'rpa tortilgan. Qalin qilib o'rilgan uzun qora sochlari yostiq ustidan tushib, polga tegay-tegay deb turardi. Meni ko'rib, u qizarib ketdi, ingichka qoramtir qo'li bilan ko'rpani dahanigacha tortib qo'ydi.

- Bugun ancha tuzuk, - dedi Usmon aka qiziga qarab. Oypopuk yengilgina jilmaydi.

- Qani ko'raylik-chi! - Mavlon qizning peshonasini ushladi. - Ha, yana ikki kundan keyin yurib ketadilar. Yo'tal qoldimi, yo hali ham bormi?

Oypopuk bosh chayqadi.

- O'tiringlar, - dedi u sekin menga ko'z qirini tashlab.

- Aytganday, o'tiringlar, o'tiringlar! - Usmon aka deraza yonida turgan stulni menga yaqinroq qo'ydi. - Kechirasizlar, uy betartib.

Kecha kech keldim rayondan. Bugun yana chaqirishibdi. Majlislar ham ko'payib ketdi-di o'zi! - dedi u qiziga gunohkorona tikilib.

- Yolg'iz qolasan yana.

- Yo'q, Farida keladi, Mahfuza ham keladi, - dedi Oypopuk. - Xavotir olmang.

- Mayli, darrov kelaman, - dedi Usmon aka. - Doktor, kecha rayonga tushmoqchi edingiz tushasizmi?

- Ha, - dedi Mavlon o'rnidan turib. Men ham turdim. Usmon aka menga qaradi.

- Siz nega turdingiz? - dedi u yalingansimon. - Shoshilinch ishingiz bo'lmasa, o'tira turing. Hozir qizlar kelib qoladi.

- Xo'p, - dedim va joyimga o'tirdim. Oypopuk jilmayib qo'ydi.

Ko'p o'tmay, Usmon aka bilan doktor ketdi. Xonaga noqulay jimlik cho'kdi.



- Kelganingizga juda xursandman, - dedi bir mahal Oypopuk.  
- Men ham sizni ko'rganimga xursandman, - dedim men - Tuzalib qolibsiz.  
Oypopuk boshini qimirlatdi.  
- Siz mendan xafa bo'lsangiz kerak-a? - so'radi u oraga tushgan jimlikni buzib.  
- Nega?  
- Anavi kuni yiqilib tushganingizda kulganimga-da.  
- Yo'g'-e, esimdan chiqib ketdi.  
B"b" Mening esimdan chiqqani yo'q, - dedi u. - Siz yaxshi suzar ekansiz. O'shanaqa suzishni batterflyay deydimi?  
- Ha.  
- Yaxshi suzar ekansiz. Lekin xafa bo'ldingiz.  
- Yo'q, - dedim qat'iy qilib. - Nega xafa bo'lay? Sira xafa bo'lganim yo'q.  
- Men juda sezgirman, - dedi u qandaydir bolalarga xos zavq bilan. - Sizning o'rningizda boshqa odam bo'lganda xafa bo'lardi.  
- Siz xafa bo'larmidingiz? - so'radim men.  
- Bilmadim, - dedi u ko'zlarini yashirib, keyin derazaga tikildi. - Siz Yakkachinor afsonasini eshitganmisiz? - so'radi u to'satdan menga o'girilib.  
- Ha, - dedim men.  
- Men ishonmayman, - dedi u qoshlarini chimirib. - Ayol kishi shunchalik qahri qattiq bo'ladimi? Siz nima deysiz?  
- Qaydam, - dedim men yelkamni qisib.  
- Hayotda bunday bo'lmasa kerak, - dedi u gapida davom etib. - Agar birovni sevsang, uni kechirishing kerak. Tag'in kim biladi? Aytganday, toshkentlik anavi qizning suratini menga ko'rsatmaysizmi?  
- Qaysi qizning suratini? - hayron bo'ldim.  
- Doktor aytgan qizning-da, - uning lablari bilinar-bilinmas titradi.  
- Doktor bekor aytibdi, - dedim jahlimni bosish uchun jilmayib. - Men Toshkentda hech kimni yaxshi ko'rgan emasman.  
- Kechiring, sizni yana xafa qildim, - dedi Oypopuk mayin ohangda va jim bo'lib qoldi.  
- Men g'alati odamman, - dedi bir mahal yana qoshlarini chimirib. - Birovni quvontiraman, deb xafa qilib qo'yaman. Nega shunday, o'zim ham bilmayman. Yoshligimda isib ketayotgan bo'lsam, sovuq yeb ketyapman, deb yig'lar ekanman. Qiziq-a? Ba'zan esa... ba'zan deraza tagiga o'tirib olib, xayol suraman, o'ylayman.  
- Nimalarni o'ylaysiz?  
- Hamma narsani. Hayotni o'ylayman, - dedi u ko'zlarini xayolchan suzib. - Hayot juda qiziq. Unda hamma narsani mukammal bilgan, hamma orzulariga yetishgan odam bo'lmasa kerak. Mana, men o'n sakkizga qadam qo'ydim. Balki, hayotimning yarmi o'tib ketgandir, kim biladi. Ammo hali hech narsa qilolganim yo'q. Qiladigan ishlarim esa juda ko'p. Mening qarzim bor, juda katta qarzim bor. Shuni uzishim kerak.  
- Uzasis, - dedim ishonch bilan qanaqa qarziligin bilmasam ham.  
Oypopuk parvo qilmay, gapida davom etdi:  
- Menga yaxshilik qilishdi. Hayotni sevishni o'rgatishdi. Bunga faqat rahmat aytish kifoya qilmaydi. Siz ertaklarni yaxshi ko'rasizmi? - Oypopukning ovozi o'zgardi. Hozirgina xonani sehrlab turgan mayin, sal g'amgin, lekin qat'iy ovozni sho'x, o'ynoqi, qo'ng'iroq ovoz egalladi. - Men judayam yaxshi ko'raman. Faqat birov aytib tursa, men ko'zimni yumib eshitsam. Meni deb dadamlar bir qancha ertaklarni yodlaganlar. Qiziq-a?  
Men boshimni qimirlatdim. Gapirishga quvvatim yo'q edi. Unga tikilib qolgan edim. Derazadan tushayotgan quyosh nurlari uning sal cho'zilgan nozik yuzini, qoshlarini yoritib turardi. Polga tegay deb turgan sochlari qimirlashi bilan tsbranib, yuz xil tusda tovlanardi.  
- Nega jim bo'lib qoldingiz? - dedim bir mahal zo'rg'a ovoz chiqarib.  
- Sizga qarab qoldim, - dedi Oypopuk jilmayib. - Meni juda ezma ekan, deb o'ylasangiz kerak-a? Unchalik emas. Ba'zan shunaqa ko'p gapirgim kelib qoladi. Ishonmaysizmi?  
- Ishonaman, - dedim men. - Siz juda yaxshi qizsiz.  
- Rostdanmi?  
- Ha, - dedim men. Uning chehrasi ochilib ketdi.  
- Bo'lmasa, bitta ertak aytib beraman. Saksonboy otamdan eshitganman. Quloq soling. Bir yigit bor ekan. U keksa, kasalmand onasi bilan olis bir shaharda yashar ekan. Yigit katta bo'lib, yaxshi-yomonni ajratadigan bo'lgach, bir donishmandning oldiga boribdi-da, nima qilsam onamning roziligini olaman, deb so'rabdi. Donishmand, onangning kasalini davola, obizamzamga opichlab olib borib, cho'miltir, debdi. Obizamzamga borish uchun qirqa tog'ni oshib o'tish kerak ekan. Yigit ko'p o'ylab o'tirmay, onasini opichlab olib ketibdi. Uch yil uch oy deganda qaytib kelibdi-da, yana o'sha donishmandning oldiga boribdi. Mana, aytganingni qildim, onamning roziligini oldimmi? - deb so'rabdi. Shunda donishmand: sen onangning seni boqqandagi bir kunlik azobidan qutulding. Rozimi-yo'qmi, o'zidan so'ra, - debdi.  
Oypopuk jimib qoldi. Lablari yumildi, ko'zlari yaltirab ketdi.  
- Mening ana shu oq sut bergan onadan ham aziz odamim bor, - dedi anchadan so'ng jiddiy ohangda.  
Bu odamning kimligini so'ramadim. Gap otasi haqida borayotgani aniq edi.  
Ko'p o'tmay, qizlar kelishdi. Xayrlashib, o'rnimdan turdim. Qo'limni uzatgan edim, mahkam qisdi.  
- Ha, aytganday, - dedi u zavq bilan. - Meni tabriklashingiz mumkin. Siz kelgan kuningiz komsomolga o'tdim. Yaqinda raykomda tasdiqlashadi.  
- Tabriklayman, - dedim chin ko'ngildan.  
- Rahmat. Kelib turing.  
- Xo'p, - dedim, - albatta kelaman.  
Uydan chiqib, o'zimdanda o'zim daryo tomonga yurib ketdim.  
Havo ochiq, osmon zangori shishaday tiniq edi. Daryo labiga kelib, meni yiqitgan xarsangtosh ustiga o'tirdim. Daryo tinch oqardi. Faqatgina daryo emas, atrofimdagi hamma narsa tinch edi. Churq etgan tovush qulog'imga chalinmas, go'yo butun borliq sokin uyquga ketgandek edi. Bir mahal nimaningdir ovozi eshitildi. Quloq soldim. Kimdir nay chalardi. Tovush goh yaqinlashar, goh yana olislab ketardi. Ko'p o'tmay, u bir me'yorda eshitila boshladi. Xuddi baland qoya ustida qimir etmay qorayib turgan

chinorday sehrlanib qoldim. Kuy hamma narsaga jon kirgizganday bo'ldi. Yengil shamol yuzimni silay boshladi, daryo to'lqinlandi, ufqqa tutashgan tog' cho'qqilari ustidan oppok bulut parchalari ko'tarila boshladi. Ko'k, sariq, qizil rangdagi tovlanib yotgan olma barglari mayin shitirlab, ajoyib ohang kasb etdi. Daryoga tikilar ekanman, shu to'lqinlar bilan baravar suzгим keldi. Yechinib, o'zimni suvga tashladim-da, xuddi Oypopuk bilan uchrashgan kunimdagidek suzib ketdim. Suvdan chiqqanimda nayning tovushini eshitmadim. Nimanidir yo'qotgan odamdek osmonga qaradim. Havoda qora bulutlar suzib yurardi. Bir mahal hammayoq qop-qorong'i bo'lib qoldi. Qayerdadir momaqaldiraq guldiradi, daryoning narigi qirg'og'ida o'tlab yurgan targ'il buzoq shataloq otib qochdi. Yomg'ir tomchilay boshladi. Ammo men parvo qilmadim. Ruhim shunchalik tetik, ko'nglim shunchalik shod edi! Yakkachinorga kelganimdan, shunday ajoyib qiz bilan, shunday ajoyib odamlar bilan tanishib olganimdan cheksiz xursand edim...  
O'sha kuni birinchi marta ko'nglim oftobdek charaqlab otamga xat yozdim. Bu xat yakkachinorliklarga bag'ishlangan qasida edi.

7

Ertasi kuni kechqurun Mavlonning otday, deganiga qaramay Usmon akalarnikiga yo'l oldim. Usmon aka beqasam to'nini yelkasiga tashlab, leykada gullarga suv quyardi.

- Juda yaxshi qildingiz kelib! - dedi u qo'lini uzatib.

Kun bo'yi uch-to'rt marta ko'rishgan bo'lsak ham salom berdim.

- Bir kirib ketay dedim.

- Juda yaxshi, juda yaxshi! Bu yoqqa yuring!

Usmon aka ayvonga boshladi. Ko'tarildim. Ayvonning to'rida Oypopuk bir kosa guruchning kurmagini tozalab o'tirardi. Sochlari iroqi do'ppisi ustiga chambarak qilib o'ralgan. Bir o'rimining uchi qulog'ining ustiga tushib, kichkina yoqut ko'zli ziragini berkitib turibdi. Meni ko'rib, turmoqchi bo'ldi.

- O'tiravering, o'tiravering! - dedim shoshib. - Tuzalib ketibsiz-ku?!

Oypopuk yengil jilmaydi.

- Juda yaxshi bo'ldi-da, kelganlari, - dedi Usmon aka qiziga qarab, keyin menga o'girilib, qo'shib qo'ydi: - O'zim bir osh qilishga orzumand edim. Bugun vaqt-soati kelgan ekan.

- O'zingizga olmag. Men aytdim osh qilaylik deb, - drdi Oypopuk uyalinqirab.

- Sen ham aytding, - Usmon aka kuldi. - O'choq ooshida yurishimni yoqtirmaydi. Nuqul o'zi qiladi, lekin yugun mening qilgim kelib qoldi. Boshlayveraymi?

Oypopuk ha deganday boshini qimirlatdi.

- Men yordamlashay? - dedim Usmon akaga.

- Yo'q, ikkita erkak o'choq ustida tursa, osh buziladi. Siz shu yerda o'tiring. Ana, Oypopukka qarashing.

Usmon aka ketdi. Ayvonda Oypopuk ikkalamiz qoldik.

- Xomush ko'rinasiz? - so'radim ro'parasiga o'tirib.

- Ha, - dedi u ko'zlarini uzun kipriklari orasiga ishirib. - Ko'p o'yladim.

- Nimalarni o'yladingiz?

- Aytolmayman. O'yladim-da. Yoshligimdan shundayman. Derazaning oldiga o'tirib olib o'ylayveraman, o'ylayveraman. Siz ham ko'p o'ylaysizmi?

- Sizchalik emas, - dedim men qo'limga bir kaft guruch olib.

Oypopuk, qo'yavering, o'zim, deganday qo'limni ushladi. Qo'llari yonardi.

- Nimalarni o'ylaysiz?

- Har narsani, - dedim yelkalarimni qisib.

- Bu yerda-chi? Uyingizni, Toshkentni o'ylarsiz? Oypopuk ko'zlarini ayyorona suzdi.

- Balki qishlog'imiz yoqmagandir?

- Yo'q, juda yoqdi. Kelganimga pushaymon emasman.

- Agar Toshkentga chaqirishsa, ketarmidingiz?

- Qaydam, bir narsa deyish qiyin. Siz-chi?

- Yo'q, - dedi u qat'iy. - Tag'in kim biladi? Agar dadamlar boshqa ishga o'tib ketsalar, iloji yo'q. Shu yer menga juda yoqib qoldi.

Tinch, chiroyli. Odamlari ham yaxshi. Shovqin-suronni yomon ko'raman. G'alati-a? To'g'rimi?

- Nega? Har kimning o'z ixtiyori.

- Ha, har kimning o'z ixtiyori... - Oypopuk o'ylanib qoldi. Ingichka barmoqlari orasidagi kurmaklar kosaga tushib, guruchga aralashib ketdi. - Bilasizmi, men shu haqda o'yladim. Nega odamlar har doim o'z ixtiyorlari bilan ish qilolmaydilar? Nima ularni shunga majbur qiladi? Yaxshi odamlarda yomon xohish bo'lmaydi-ku?! Yaxshi odamlar esa juda ko'p.

- Men nimani nazarda tutib gapirayotganingizni bilolmayapman, - dedim xijolat bo'lib.

- Bilmaganingiz ma'qul. - Oypopuk xo'rsindi. - Yaxshisi, o'zingiz haqingizda gapirib bering. Tanishmizu sizni bilmayman. Faqat otangiz borligini bilaman, xolos.

- Shuni bilsangiz, boshqasini gapirishning hojati yo'q.

- Nega? - hayron bo'ldi u.

- Qiziq emas, - dedim men.

- Mayli, gapirib bering.

- O'ttizinchi yilda tug'ildim. Tishim chiqib, olti yarim yoshga to'lganimda maktabga bordim. Bitirib, institutga kirdim. Uni tamomlab, bu yoqqa keldim. Tamom. Buning nimasi qiziq?

- Bilib qo'ygan yaxshi-da, - dedi Oypopuk jilmayib. - Qizig'i endi keladi.

- Kim biladi, - dedim men.

- Men bilaman, - dedi Oypopuk quvonch bilan. - Qani, qo'lingizni bering-chi, bir fol ochib qo'yay!

Men qo'limni uzatdim.

- O'ho', - dedi u zavq bilan kaftimga tikilib. - Bunaqa katta qo'l bilan istagan orzuvingizga yetasiz. Innaykeyin, chiziqlarini qarang. Aytaveraymi?

U menga g'alati tikildi. Men ha, deganday boshimni qimirlatdim.

- Ishingiz yaxshi. Martabangiz baland bo'ladi. Manavi chiziqni qarang-a, muncha uzun. Uzoq umr ko'rar ekansiz. Lekin, lekin... Aytaveraymi?

- Aytavering! - dedim hayajon bilan.

- Lekin... sizga sevgining yo'li berk.

- Nima?!

Angrayib qoldim. Oypopuk birdan qah-qah otib, kulib yubordi.

- Hazillashdim, hazillashdim, - dedi u kulgidan o'zini to'xtatolmay. - Nahotki folga ishonsangiz? Hammasi yolg'on-ku?! - Keyin jiddiy ohangda qo'shib qo'ydi: - Men sizning baxtli bo'lishingizni istardim, judayam istardim.

- Men ham sizga shuni istayman, - dedim men.

- Rahmat, - dedi u o'ylanib.

Shu payt Usmon aka chaqirib qoldi.

- Bu yoqqa yuring, oshning tuzini ko'rib yuboring! O'choq boshiga bordim.

Yarim soatdan keyin osh suzib kelindi. Oypopuk bir grafin "Hosilot" olib chiqdi. Bir piyoladan to'latib ichdik. Oypopuk ichmadi. Shunday labiga tegizib qo'ydi. Usmon akaning ikki ko'zi qizida edi. Oypopuk bir osham olib:

- Judayam shirin bo'пти, dada, - deganidan keyin qo'l uzatdi.

Ovqat mahali Oypopuk negadir bo'shshib o'tirdi. Oshdan ham tuzuk yemadi. Biz Usmon aka bilan o'zimizning ishlarimiz, kuzgi sabzavot, yangi ochilmoqchi bo'lgan yer va boshqa ishlar haqida gaplashdik. U churq etmadi. Lekin sezib o'tiribman, yer ostidan menga qarab-qarab qo'yadi.

Vaqt allamahall bo'lganda o'rnimdan turib xayrlashdim. Eshikka yetganimda Oypopuk:

- O'ktam aka! - deb chaqirib qoldi. - So'ragan kitobingiz qolib ketdi.

Hayron bo'lib, to'xtab qoldim. Men undan hech qanday kitob so'ramagan edim. Oypopuk yugurib oldimga keldi. U alahsirardi.

- Kechirasiz, - dedi past ovozda. Aftidan, gapirishga qiynalardi. - Kitob... shunchaki bahona. Sizdan bir narsani so'ramoqchi edim...

- Nimani?

- Men... men... yoqamanmi sizga?

- Nima? - deb yubordim shoshib, yuragim dukillab urib ketdi.

- Kechirasiz, - dedi u ham shoshib. - Bunday demoqchi emas edim. Kechirasiz, - u labini tishladi. - Shu kunlarda menga nima bo'lganini bilmayman. G'alati bo'lib qoldim. Kasallikdan emas bu, yo'q. Dadamlar ham hayronlar. Sezyapman. Siz meni bilmaysiz.

Men bunaqa emas edim. Mendan kulmang!

Oypopuk jimib qoldi. Uning ko'zlarida yosh yiltirardi.

- Qo'ying, - dedim titroq qo'llarini ushlab. - Siz juda yaxshi qizsiz. Nega sizdan kular ekanman? Ishoning, gapim chin. Sizni, sizni juda hurmat qilaman!

- Rostdanmi?

- Yolg'onni yomon ko'raman.

U qo'limni mahkam qisdi-da, chehrasi yorishib, orqasiga qaytdi.

"Nima bo'ldi o'zi? - dedim ko'chaga chiqib. - Unga nima bo'ldi? Nahotki meni sevib qolgan bo'lsa?!"

8

"Nahotki meni sevib qolgan bo'lsa?!" - derdim men o'z-o'zimga. Bunga o'zimni ishontirishga harakat qilib, sevinardim va ayni vaqtda nimadandir cho'chirdim.

Sevinishimning sababi - shunday ajoyib qizning menga muhabbat qo'yishini butun vujudim bilan istaganim edi. Ha, men uning meni sevishini istardim. Uning sevgisiz hayotning menga qizig'i yo'q edi. Buni endi yaxshi bilardim. Chunki, men uni allaqachon yaxshi ko'rib qolgan edim. Men uni betobligida borib ko'rganimda emas, allaqanday kitobni bahona qilib, men bilan g'alati xayrlashganida ham emas. Yo'q, men uni Yakkachinorga birinchi kelgan kunim lovullab turgan gulxan yonida ko'rganimda, yuzlari anordek qizarib, sokin raqs tushganida, uyatchanlik bilan ko'zlarini yashirib, eshitilar-eshitilmas salom berganida sevib qolgan edim. Birinchi ko'rganimdayoq bezovta bo'lib, yuragimni qandaydir hali mengatanish bo'lmagan lazzatli tuyg'u qoplagan, hayotning yangi bir sehrli dunyosi menga o'z quchog'ini ochgan edi. Men buni Oypopuklarnikidan yarim kechada qaytayotganimda tushundim, tushundimu hamma narsa boshqacha tuyulib ketdi. Qorong'i bo'shlikda xiragina qalqib turgan oy projektor singari yo'limni yoritdi, yulduzlar charaqlay boshladi, uylar, dov-daraxt kumushdek yarqirab, ajoyib husn kashf etdi. Jimjit qishloqni tonggacha aylanib yurdim.

Oypopuk, Oypopuk!.. Bulokdek tiniq, sof inson, tengi yo'q qiz!.. Uni sevmay bo'larmidi?! U hayotning o'zi, u - kelajak, bitmas-tuganmas orzular!.. Hali-hali uning sho'x kulgilari, yurakni allalovchi gaplari, qo'ng'iroq ovozi qulog'im ostida jaranglaydi, tizzalarini quchoqlab, bitta-bitalab guruch tozalab o'tirgani ko'z oldimdan ketmaydi...

Ha... Men uning menga muhabbat qo'yishini istardim va ayni vaqtda nimadandir cho'chirdim. "Meni sevmasa-chi? - derdim o'zimcha. - Shunday, yaqin olib yurgan bo'lsa-chi?" Ayollarning juda murakkab va mug'ambir bo'lishini eshitganman. Lekin Oypopukni shunday ayollar qatoriga mutlaqo qo'shgim kelmasdi. To'g'ri, u juda murakkab tabiatli qiz edi. Uni darrov tushunish, gapirayotganida xayolida nimalar kezayotganini bilish ancha qiyin, ko'pincha esa mutlaqo mumkin emas edi. Xo'sh, sevmasa nega bunday tutadi o'zini? Nega bunday g'alati fol ochadi? Uning haqidagi fikrlarimdan nega xuddi yosh boladek xursand bo'lib, chapak chaladi? Boshim qotdi. Uchrashishga, butun dardimni to'kib solishga ahd qildim.

Ertasiga uyiga bordim. Uy berk edi. Qaytib ketayotib, idoraning oldida Faridani uchratib qoldim. Ikkalovi o'rtoq ekanligini, maktabni birga tamomlaganliklarini bilardim. Har qanday uyatni yig'ishtirib qo'yib, so'radim:

- Oypopukni ko'rmadingizmi? Uyda yo'q. Tuzukmikan?

- Tuzuk, - dedi Farida. - Bugundan ishga chiqqan. Fermada. Nima edi?

Javob berishga sabrim chidamay, fermaga yugurdim. Ammo u yerda ham yo'q edi. Hozir shu yerda edi, qayoqqadir ketdi, deyishdi. Qayoqqaligini aytishmadi. Butun qishloqni aylanib chiqsim, ammo topolmadim. Kunni zo'rg'a o'tkazdim-da, kechqurun uyiga bordim. Usmon aka ayvonda cho't qoqib, qandaydir hujjatlarni tekshirib o'tirardi. Oypopuk ko'rinmadi. So'rashga esa, botinolmadim. Bir mahal, uying eshigi ochilib, u chiqdi. Lekin... lekin ko'rishi bilan qaytib kirib ketdi. Hayron qoldim. Yuragim orqamga tortib, oyoqlarimgacha bo'shshib ketdi. Ancha o'tirdim. Lekin u chiqmadi.



Xomush bo'lib uyga qaytdim.

Mavlon Shahodat xola bilan gaplashib o'tirardi.

- Sobirdan xat kelibdi, - dedi u meni ko'rib. - Ming metr balandlikdan parashyutda sakrabdi.

Sobir kampirning o'g'li edi.

- Yaxshi, - dedim parvosizlik bilan.

- Ha, kayfingiz buzuq? - so'radi doktor. Indamadim.

- Bu kishining muchali qishmi deyman, nima balo?! - dedi Shahodat xola. - Sal narsaga kuyunaverasizmi, bolam? Mundog' yozilsangiz-chi!

Erinibgina jilmayib qo'ydim. Gapirishga majolim yo'q edi.

Zo'rg'a tunni o'tkazdim. Boshim guvillab og'rirdi, nima qilishimni bilmasdim. Ruhim tushgan, kayfim buzuq edi. "Nega bunday qildi? Nega birdan o'zgarib ketdi?" - o'ylardim nuqul. Qancha o'ylasam ham o'yimning tagiga yetolmasdim. Kechqurun pravleniye yig'ilishi bo'ldi. Yig'ilishda xuddi nina ustida o'tirgandek o'tirdim. Yuragimga hech narsa sig'masdi. Yig'ilish tamom bo'lishi bilan otilib eshikka chiqdim.

- O'ktam aka! - dedi shu payt orqamdan kimdir. O'girildim, Farida edi.

- Xo'sh?

- Manavi xat sizga, - dedi u. - Popuk berib yubordi. Yuragim hapqirib ketdi. Xatni shu yerdayoq ochib o'qiy boshladim.

"Bezovta qilganim uchun kechiring, - deyilgan edi xat-da. - Sizda zarur ishim bor. Daryo labidagi o'sha o'zingizga tanish bo'lgan xarsangtosh yonida kutaman. Yig'ilishdan chiqib keling. O'tinib so'rayman. Oypopuk".

Menga jon kirdi. Xatni mahkam ushlaganimcha olmazorga qarab yugurdim.

Oydin kecha edi. Hammayoq kumushrang nurga ko'milgan. Jimjitlik. Faqat olma barglari sehrli shitirlardi. Xarsangtosh oldida nimadir qorayib ko'rindi. Oypopuk! Yuragim battar o'ynab ketdi. Yaqinlashdim. Oypopuk menga o'girildi, uning ko'zlari charaqlardi.

- Salom. Tinchlikmi? - dedim muzdek qo'lini qisib.

- Tinchlik. Meni kechiring, - dedi u. - Bemahalda qiz bolaning bunday pastqam joyga erkak kishini chaqirishi odobdan emas.

Bilaman. Lekin majbur bo'ldim. Men... men...

U jimib qoldi. Boshi egildi, birdan yelkalari titrab ketdi. U yig'lardi.

- Nima bo'ldi o'zi? Aytasangiz-chi! Meni qiynamang! - dedim o'pkam to'lib borayotganini sezib.

- Men... men.. sizni yaxshi ko'rib qoldim...

Oypopuk shunday deb, boshini ko'kragimga tashladi.

- Men ham... men ham!.. - dedim uni bag'rimga bosar ekanman. - O'sha birinchi ko'rishgan kunimizoz yaxshi ko'rib qoldim!..

Gulxan yonida...

- Rostdanmi? - so'radi u boshini ko'tarmay.

- Rostdan, rostdan! - dedim men. - O, qanday yaxshi! Oypopuk, jonim!.. - o'pa boshladim. U indamasdi. Keyin hozirgina menga baxt ato qilgan lablaridan o'pmoqchi bo'lib, yonib turgan quloqlarini qisib, boshini ko'tardim. Uning jiqqa yosh ko'zlari mehribonlik bilan menga tikildi. Birdan u siltanib qo'limdan chiqdi. Xarsangtoshning ikkinchi tomoniga o'tdi-da, menga teskari o'girilib, unga suyandi. U yig'idan to'xtagan, lekin xomush edi. Yoniga borib, bilagidan ushladim.

- Qo'ying, - dedi qo'lini tortib. - Sizni bunga chaqirmagan edim. Qo'rqqanim bo'ldi. Shundan qo'rqqan edim.

- Nima bo'ldi? Nima deyapsiz o'zi? - so'radim men.

- O'ktam aka, - dedi Oypopuk savolimga javob bermay, jiddiy ohangda. - Sizdan katta iltimosim bor. Shuni bajarsangiz, men sizdan bir umr minnatdor bo'laman.

- Ayting, qanday iltimos?

- Keting bu qishloqdan... Butunlay keting.

- Nima?! - hayron bo'lib qoldim. - Nima deyapsiz o'zi?

- Keting, deyapman, - Oypopuk menga tik qarab gapirdi. - Yoshsiz. Yaxshi qizlar ko'p boshqa joylarda ham, o'tinib so'rayman, keting. Men bilan hayotingiz azobda o'tadi.

- Unday demang, - dedim men jahl bilan. - Nega azobda o'tar ekan? Meni sevasiz-ku!

- Ha, sevaman, judayam sevaman. Lekin... lekin, - dedi Oypopuk. - Men o'zimni yaxshi bilaman. Yarimta odam bilan hayot qurib bo'lmaydi. Men esa, siz bilan bo'lsam yarimta bo'lib qolaman.

- Nega axir?

- Dadamlar-chi? U kishi mening tug'ishgan otam emas. Lekin men uchun tug'ishgan otamdan ham aziz. Tashlab ketolmayman.

Xuddi menga o'xshab, u ham yolg'iz. Meni deb hatto turmush qurmagan. Men ham o'zimni unga bag'ishlamoqchiman. Buning uchun men hamma narsadan, sevgimdan ham, baxtimdan ham voz kechishim mumkin. Keting. Agar meni sevsangiz, ketasiz. Axir, ayting, bir odam o'zini ikki kishiga bag'ishlay oladimi?

Men turgan joyimda qotib qolgan edim. Hozirgina yuragimni yoritib turgan baxt chirog'i so'nayotgandek edi. Uning oxirgi so'zlari meni o'zimga keltirdi.

- Men hamma narsaga tayyorman, - dedim hayajon bilan. - Nima desangiz, shuni qilaman. Faqat siz bilan birga bo'lsam bo'ldi.

Haydamang, Oypopuk!

- Yo'q, yo'q! - u ko'zlarini yumdi. - Keting, o'tinaman, keting. Sevaman, dedingiz-ku! Meni qiynamang.

- Xo'p, - dedim nihoyat. - Hozir ketaymi?

- Ha, hozir keting.

Butun vujudim bo'shashib, mast odamday gandaraklab yo'lga tushdim. Men yig'lardim. Birdan og'ir yo'qotish boshimga tushganiga yig'lardim. Boyagina ko'zimga ming xil rangda tovlanib ko'ringan dunyo qorong'i zimistonga aylandi. Timirskilanib olmazorga kirib ketdim. Shu payt:

- O'ktam aka! - degan chinqiroq ovoz qulog'imni teshib yuboray dedi.

To'xtab qoldim.

- O'ktam aka! - dedi yana shu ovoz. Endi yaqinroqdan eshitildi. Quloq soldim. Kimdir men tomonga yugurib kelardi. Tanidim.

Yuragim qinidan chiqib ketayozdi. Bu Oypopuk edi! U yugurib kelib, o'zini bag'rimga otdi-da, yig'lab yubordi...

9

O'sha kuni dimog'imda nozik, yoqimli hid qoldirib, Oypopuk ketdi. Men ham uyga yo'l oldim. Kayfim chog' edi, lablarimda tabassum o'ynardi. Uyga kirganimda doktor otamdan xat kelganini aytdi. Olib o'qiy boshladim.

"O'g'lim, - deb yozibdi otam. - So'nggi xatingni olib xursand bo'ldim. Yakkachinorning yaxshi joyligini bilardim. - Eskadronimiz 29-yili o'sha qishloqda turgan, lekin senga bunchalik yoqib qolishini o'ylamagan edim. Ketib qolasanmi, deb qo'rqib yuruvdim. Endi ko'nglim joyiga tushdi. Og'ir bo'l, nojo'ya ishlar qilib qo'yima.

Mening ahvolimni so'rasang, yomon emas. "Semashko"ga yoting deyshiyapti. Yotgim yo'q, tuzukman.

Ha, aytganday, bir narsani so'ramoqchi edim. Xating bu gal ancha tarqoq, ega-kesimining tayini yo'q. Tinchlikmi o'zi, yo ishing ko'pligidan shoshib yozdingmi? Bir kun oldin, bir kun keyin, shoshma.

Salom bilan otang".

O'sha zahotiyog javob yozdim.

"Xatingizni oldim, - dedim unda. - Salomatligingizni bilib, xursand bo'ldim. "Semashko"ga yotsangiz, yaxshi bo'larmidi?

Harholda, yurak bilan o'ynashib bo'lmaydi.

Mening ishlarim yaxshi. Avvalgi xatimning tarqoqligiga sabab ko'p. Bu yer menga juda yoqib qoldi.

Kuzning oxirlarida ikki-uch kunga borib kelaman. Shunda bafurja gaplasharmiz".

Ha, Yakkachinor haqiqatan ham menga yoqib qolgan edi. O'zimni baxtli his qilardim. Inson o'zi bilmagan, lekin tusmol qilib yurgan butun orzulariga yetishadi-yu, baxtli bo'lmaydimi?!

Biz Oypopuk bilan har kuni uchrashardik. U adasiga turli bahonalarni qilib, uydan chiqardi, bir-ikki soat daryo labida, olmazor ichida aylanardik, gaplashardik... Gapimiz sira ado bo'lmasdi. Hayajon, hazil, kulgi aralash tuzilgan ming xil reja, ming xil orzularni, hattoki oddiy gaplarni kunda ming martadan qaytarsak ham jonimizga tegmasdi. Aksincha, har gal har xil jaranglardi. Yoshlikdagi orzu, rejalarini bilasizmi? O, bu orzular!.. Qanday shirin, lazozatli... ularni tilga olish bilanoq o'zingizni o'zga dunyoda his qilasang, qalbingiz to'lqinlanadi, ko'zlaringizda, lablaringizda tabassum o'ynaydi.

Bir qarasangiz, qush bo'lishni orzu qilib, turnalar singari ko'kda parvoz qilardik. Bir qarasangiz, dalalar, qir, tog'-toshlar oshib, sevgimizni butun dunyoga jaranglatib kuylardik. Bizning yuzga kirishimiz aniq edi. Shu yuz yil ichida qiladigan ishlarimiz ham aniq edi. Oypopuk doim yonimda bo'ladi. U mendan bir qadam siljimaydi. Menga tikilib o'tiradi, albatta kechqurun, ishdan keyin. Dadasi ham biz bilan bo'ladi. U biz bilan birga yashaydi, biz bilan baravar umr ko'radi. Uning bizdan oldin o'lib ketishi mumkin emas. Shunday odamning o'lishi mumkinmi? Ikkalamizga baravar dada bo'ladi. Men ham otamni olib kelaman. Biz ishda bo'lganda, ikkalovi zerikmay o'tirishadi. Biz ko'p sayohat qilamiz, butun dunyoni aylanib chiqamiz. Yakkachinorda esa, biz bormagan joy qolmaydi.

Bir kuni biz, odatdagidek, daryo labida uchrashdik. Kuzning o'rtalari edi o'shanda. Bog'lar, dalalar oltin tusga kirgan. Havo bir oz sovigan bo'lsa ham, iliq shamol esardi. Biz oyoqlarimizni suvga osiltirib, daryoga tikilib o'tirardik.

- O'ktam aka, - dedi bir mahal Oypopuk, - esingizdami, xuddi shu yerda "Dengiz sirlari"ni o'qib o'tirganimda, gir ko'p ekanmi dengizda, deb so'radingiz. Esingizdami?

- Ha, siz hali bilmayman, dedingiz. To'g'rimi?

- To'g'ri. Esingizda ekan. - U kuldi.

- Nima edi? - so'radim men.

- Dengizda sir ko'p ekan, - dedi u xayolchan. - Odamlarda undan ham ko'p bo'lsa kerak-a?

- Ha, undan ham ko'p, - dedim men. - Lekin ular o'z sirlarini yashirmaydilar. Yashirishsa, shunday go'zal joylarda yasharmidik?

- Sizning ham sirlaringiz bormi? - so'radi u ko'zlarini ayyorona suzib.

- Sizdan yashiradigan hech qanday sir yo'q menda.

- Qaydam?.. - u oyoqlarini shapillatib, ko'zlarini ayyorona suzdi.

- Nima, menga ishonmaysizmi?

- Qaydam?

Men uning hazillashayotganini bilardim, lekin bilsam ham negadir tashvishlandim.

- Axir, kechagina, ishonaman, deb aytgan edingiz-ku?

- Kecha boshqa, bugun boshqa, - dedi u qoshlarini chimirib. - Kecha havo bulut edi, bugun esa ochiq.

U xaxolash bilan birdan o'rnidan turdi-yu, peshonamdan o'pdi.

- Sizni yaxshi ko'raman. Ishonaman. Yuring, toqqa chiqamiz!

Oypopuk tufilisini qo'lga olib yugurib ketdi. Men ham o'rnimdan turdim. Chinorli qoyaga yetib kelganimizda kun ancha og'ib qolgan edi. Havo ham salqin edi. Kurtkamni yechib, qoramtir bilaklarini quchoqlab olgan Oypopukning yelkasiga tashladim.

Osmonda katta-katta bulut parchalari suzib yurardi. Ular orasidan tushib turgan ingichka shu'lalardan chinorning qizg'ish barglari oltin tangalardek yaraqlardi. Ko'zim qamashib ketdi.

- Yuring, qoyaga chiqamiz, - dedi Oypopuk, - sira chiqqan emasman.

Toshdan-toshga bitta-bitta oyoq qo'yib, qoyaning ustiga ko'tarildim.

- Voy-bo'! - deb yubordi Oypopuk atrofqa qarab.

Ko'z oldimizda ajoyib manzara ochilgan edi. Butun qishloq, past-baland uylar, bog'lar, polizlar, to'lqinlanib oqayotgan daryo tagimizda edi. Tepamizda esa baland qoyalar, oq-qora bulutlar, g'uwillagan shamol!

- Qanday chiroyli! - dedi Oypopuk entikib.

- Ha, judayam, - dedim men.

- Tez-tez kelib turamiz, xo'pmi?

- Xo'p.

- Men qishlog'imizning bunchalik chiroyliligini endi bildim! Qarang, hov ana, uyimizni ko'ryapman. Hov ana, tolning tagida.

Ko'ryapsizmi?

- Ha, hov ana idora.

- Ha. Sizning uyingizni topib beraymi? Oypopuk bahaybat chinorga yaqinlashib, suyandi.

- Topdim, topdim. Bu yoqqa yaqin ekan-ku! Qarang.

Uning yoniga borib, men ham chinorga suyandim.

- Ha. Doktor uydaga o'xshaydi. Deraza ochiq.

Bir mahal Oypopuk titrab ketdi-da, menga yopishib oldi.

- Qarang! - dedi qo'li bilan pastni ko'rsatib. Qaradim-u, yuragim orqamga tortib ketdi. Qoyaning tagi qandaydir chuqur bo'shliq edi. Kichkina jilg'a xuddi ilondek to'lg'anib oqardi. Katta-kichik toshlar atrofida dumalab yotardi.

- Shu yerdan tushib ketgan odam o'lsa kerak-a? - dedi Oypopuk sirli ohangda.

- Ha. Chuqurligini qarang. Bunchalik balanddamiz, deb o'ylamagan edim.

- Men ham. - Oypopuk o'ylanib qoldi, bir ozdan keyin dedi: - Balki xotinini tashlab ketgan yigit shu yerdan yiqilib o'lgandir?

- Qaysi yigit?

- Yakkachinor afsonasidagi yigit-da. Mening unga rahmim keladi. Bechora qanday azob chekkanikin?

- Yuring, qaytamiz, - dedim gapni boshqa yoqqa burish uchun.

- Yo'q, yo'q. Yana bir oz turaylik, - dedi shoshib Oypopuk va qo'limni ushladi. - Qarang, quyosh botyapti. U xuddi so'nayotgan vulqonga o'xshaydi. Siz quyosh botishini yaxshi ko'rasizmi? Men juda yaxshi ko'raman. Shunday qarab o'tiraversam, o'tiraversam.

U botib, qorong'u tushishini esa, yomon ko'raman. Hamma jonivorlar ham buni yomon ko'rsa kerak. Nega bo'lmasa sigirlar ma'raydi, tovuqlar qaqillaydi? Men ham o'zimni yomon his qilaman. Ichimda nimadir uzilib ketganday bo'ladi. O'ktam aka?

- Labbay? - dedim uning gaplariga berilib.

- Meni yaxshi ko'rasizmi?

- Judayam!

- Meni hech yolg'iz tashlab ketmaysiz-a?

- Yo'q!

- Doim men bilan birga bo'lasiz-a?

- Ha!

- Sizens bir soat ham, bir minut ham turolmayman, deng!

- Sizens bir minut ham turolmayman.

- Men ham. Men ham sizens bir minut turolmayman. Sizni sira ham, sira ham yolg'iz tashlab ketmayman. O, men naqadar baxtliman, baxtliman!

Ha, biz ikkalamiz ham baxtli edik. Go'yo, dunyo faqat biz uchun yaratilgandek, undagi hamma narsa, bepoyon dalalar ham, ko'ko'par tog'lar ham, kumush daryolar, jilg'alar, lolarang chamandek yastanib yotgan bog'lar ham biz uchun, yolg'iz biz uchun barpo etilgandek edi. Qaytayotganimizda so'radim:

- Usmon akamga nima deysiz? Oypopuk qizarib ketdi.

- Har kungi gapimni aytaman. Faridalar nikidaydim, deyman.

- Hech narsani sezmayaptilarmi?

- Yo'q, - dedi u xayol surib. - Sezmayotgan bo'lsalar kerak. Aytish kerak edi. Lekin qanday qilib aytaman?

- Men aytaymi?

- Yo'q, yo'q, - dedi shoshib Oypopuk. - Men o'zim... o'zim aytaman. Baribir, aytish kerak-ku axir. Yashirib bo'lmaydi.

- Qiz bolasiz, qiyin bo'lar? Men aytaqolay?

- Yo'q, - dedi u, - dadamlardan hech narsani yashirmayman. Buni ham aytaman. Lekin... ikki kundan beri nash'alari past.

- Ha, men ham sezdim, - dedim men. - Lekin nega? Kolxozda ishlar yomon emas.

- Men bilaman, - dedi Oypopuk. - Toshkentda bir o'rtoqlari bor edi. Qosim aka degan. Injener. Shu kishi qamalibdi.

- Qamalibdi? - ajablanib so'radim men.

- Ha.

- Nega qamalibdi?

- Hech kim bilmaydi. Uydagilar ham. Dadamlar, adashib qamalgandir, bunaqa voqealar bo'lib turadi, deyaptilar. Qosim aka biznikiga ko'p kelib turardilar. Utgan yili kuzda Yakkachinorga ham kelib, uch-to'rt kun turib ketganlar. Doktor u kishiga juda yoqib qolgan edi. Ay-niqsa, pazandaligi. Yakkachinorga yana kelsam, Mavlonjonning oshi uchunoq kelaman, degan edilar.

Urushda ham bo'lganlar, ko'p qiyinchiliklarni tortganlar. Asirda bo'lganlar-da, keyin qochganlar. PolCHshadan. Ancha vaqt ishga joylasholmay yurdilar. Dadam joylashtirib qo'ydilar. Eh, tortgan azoblarini gapirib bersalar, yuraklaringiz ezilib ketadi. O'ktam aka, adashib qamalgandir-a, nima deysiz?

- Menimcha ham shunday bo'lsa kerak, - dedim men.

- Biram yaxshi oylari bor. Xuddi qo'g'irchoqning o'zi deysiz.

Oypopuk kuldi.

- Uylarida ko'p bo'lganman. Meni nuqul puchuq, deydilar. Men puchuqmanmi?

Oypopuk erkalanib menga qaradi.

- Puchuqsiz, - dedim men. Ikkalamiz kuldik.

Uyga kelganimda Mavlon yuziga jurnal yopib, karavotda yotardi.

- Ha, doktor? Kasalmisiz? - dedim hazillashib. U uh tortdi.

- Turing, ovqatlanamiz. Shunday qornim ochdi.

- Ko'proq yuring, - dedi u zaharxandalik bilan, keyin qo'shib qo'ydi. - Tag'in mening tegishimni ham tushirib qo'ymang. O'layotgan bo'lsam ham ovqatni yeyman. Menga qarang!

- Xo'p, qaradim, - dedim ovqatga yopishib.

- Men ketaman.

- Qayoqqa?

- Shaharga. Bu yerda men ishlolmayman. Yo'q. Ketaman.

- Jinnilik qilmang.

- Bu jinnilik emas. - Doktor o'rnidan turib, yonimga kelib o'tirdi. - Bir yildan oshdi, chidadim. Endi toqatim yo'q. Qishloq - qishloqda. Umrim bekorga o'tib ketadiganga o'xshaydi. Medikka shahar kerak.

- Farida-chi? - so'radim men.

Ularning so'nggi paytlarda bir-birlariga boshqacha qarab yurishganini bilardim.

- Nima bo'пти? Qiz bola birovning xasmi, - dedi Mavlon beparvolik bilan. - Joylashgach, olib ketaman.

- Rozi bo'larmikin?



- Ko'ndiraman, - dedi qat'iylik bilan u.  
- Ixtiyoringiz, - dedim men ovqatdan bosh ko'tarmay, Mavlon mendan bunday javobni kutmagan edi shekilli, bo'shshib qoldi.  
- Ertaga bir osh qilaylik, - dedi anchadan so'ng menga aybdorlarcha boqib. - Qo'lboladan ozgina bor. Ketar jafosiga yaraydi.  
- Oshingizning tarixini Toshkentda ham bilishar-kan, - dedim Oypopukning gaplari esimga tushib.  
- Yo'g'-e, kim bilar ekan? E-ha, injener Vohidovmi? Utgan yili kuzda kelgan edi u. - Mavlonning chehrasi ochilib ketdi. - Oshni shu choyxonada qilib bergan edim. Juda ochiq, sergap odam. Uch kun turibdi-yu, bittamizga og'iz ochirmabdi-ya! Tag'in nimalarni gapiradi deng? Nuqul qandaydir shpindelCHb-mpindellarni!  
- Shu odam qamalibdi.  
- Qamalibdi? Nega?  
Yelkamni qisdim. Mavlon ham jimib qoldi.  
Ko'p o'tmay yotdik. Darrov ko'zim ilindi. Mavlon ham xurрак ota boshladi. Bir mahal cho'chib uyg'onib ketdim. Kimdir jonholatda derazani taqillatardi.  
- Kimdi, kim? - shoshib ochdim. Oypopuk ekan.  
- Dadamlar! Dadamlarni!.. - dedi u entikib va gapirolmay ho'ngrab yubordi.  
- Bu yoqqa kiring! Nima bo'ldi o'zi? - deb eshikka yugurdim. Oypopukni qo'ltiqlab olib kirgunimcha, uydagilar allaqachon turishgan edi. Shahodat xola lablari titrab gapirolmasdi. Mavlonning rangi quv o'chib ketgan. Nuqul entikayotgan Oypopukka qarab qolgan edi.  
- Nima bo'ldi? - derdim men nuqul va zo'r berib Oypopukni xonaga olib kirishga harakat qilardim.  
Stulga o'tqazganimda o'zini bosib oldi shekilli:  
- Dadamlarni... dadamlarni... qamoqqa olib ketishdi, - dedi va hushidan ketib qoldi.  
Mavlon uyqusi qochib, nima bo'lganiga tushundi va Oypopukni mendan oldi. Og'zi ochilib, bizga qarab turgan Shahodat xola birdan:  
- Voy, voy sho'rim! - deb baqirib yubordi. Birpasda uy qo'ni-qo'shniga to'lib ketdi. Hovlini qiy-chuv bosdi. Ayollar bir-birlariga quloq solmay, nimalarnidir hovliqib gapirishar, ora-sira yig'lab ham olishardi. Haydarali aka, kolxoz partorgi kelib, hammani haydab yubordi-da, xonaning eshigini berkitdi. Oypopuk o'ziga kela boshladi. Bir ozdan so'ng ko'zlarini ochib, xonadagilarga bir-bir qarab chiqdi-da, piqillab yig'lab yubordi.  
- Yig'lama, qizim, - dedi Haydarali aka. - Ertalab hammasi ayon bo'ladi. Otangning gunohi yo'q, men bilaman. Anglashilmovchilik bo'lsa kerak bu. Ertalab hammasi ayon bo'ladi. Otangning gunohi yo'q. Yig'lama.  
Oypopuk o'rnidan turmoqchi bo'lib, qo'zg'aldi.  
- Turmang, - dedi Mavlon. - Bugun shu yerda yoting.  
- Ha, shu yerda qoling, - dedim men ham.  
- Qayoqqa borasan? Sho'tta qol! - dedi Shahodat xola.  
- Shu yerda qol, - dedi Haydarali aka va menga o'girildi. - Ertalab idoraga yig'ilaylik.  
- Xo'p, - dedim men.  
- Endi yotinglar, hali erta, - dedi Haydarali aka. - Baribir foydasi yo'q.  
U ketdi. Lekin hech qaysimiz mijja qoqqanimiz yo'q.  
Tong otishi bilan idoraga bordim. Usmon akaning kabinetini odamlar bilan liq to'la edi. Ko'p o'tmay Saksonboy ota bilan Haydarali aka ham kelishdi. Hamma negadir jim, hech kim gapni nimadan boshlashni bilmasdi. Bu ayanchli sukunat ancha davom etdi. Nihoyat, Saksonboy ota chiday olmadi shekilli, mendan so'radi:  
- Oypopukka nima qilibdi, yotibdimi?  
- Yotibdi, mazasi yo'qroq, - dedim men.  
- Nima qilamiz? - dedi Haydarali aka hammaga bir-bir qarab chiqib. - Bir narsa qilish kerak.  
Hech kimdan sado chiqmadi.  
- Men kechasi butun ishlarimni xomcho't qilib chiqdim, - dedi Haydarali aka. - Kolxozda chatoqlik yo'q. Boshqa ish bo'lsa kerak, chamamda, faqat Usmonjonning o'ziga aloqador bo'lgan ish.  
- Nima ish bo'lishi mumkin? - so'radi Saksonboy ota. - Doim katta-katta ishlarda ishlab kelgan. Doim mukofotlanib yurgan.  
- Bilmadim, - uning gapini bo'ldi Haydarali aka. - Menimcha, qandaydir anglashilmovchilik bo'lsa kerak.  
- Ishqilib, shunday bo'lsin-da, - dedi kimdir yengil xo'rsinib, - yaxshi odam edi.  
- Ha, tilla odam Usmonjon, menimcha bunday qilsak... - dedi Haydarali aka bir oz o'ylanib. - Rais o'rnini bilintirmay ishlayveramiz. Vahimaga tushish kerak emas. Ikki-uch kishi rayonga boraylik. Har holda, u yerda bilishsa kerak. Nima deysizlar? Hamma bu taklifni ma'qulladi.  
- Qizi nima bo'ladi? U yolg'iz-ku! - dedi kimdir.  
- Nima bo'lardi? - qizishdi Haydarali aka. - Hech narsa bo'lmaydi.  
- Farida bilan turadi, - dedi Saksonboy ota. - Yo' biznikida, yo' o'zinikida.  
- Uch-to'rt kunlik gap bu, - dedi Haydarali aka. - Hech nima qilmaydi. Usmonjon kelguncha Saksonboy ota aytganday turaturadi.  
Xo'p, raykomga men boraman. Yana kim boradi?  
- Men! - dedim o'rnimdan turib.  
- Bo'lmasa ketdik. Ikki kishi bo'ladi.  
Haydarali aka odamlarga ba'zi topshiriqlarni berdi-da, eshikka chiqdi. Ketidan men ham chiqdim. Shu zahotiyoyq rayonga jo'nadik.  
- Juda erta ketyapmiz, - dedi yo'lda Haydarali aka. - Raykomda hech kim bo'lmasa kerak.  
Lekin bunday bo'lib chiqmadi. Mashinamiz gulzor yonida to'xtaganda Qodirovning o'zi chiqib kelayotganini ko'rib qoldik.  
- Juda yaxshi bo'ldi, - dedi Haydarali aka. - O'zini uchratib qoldik.  
Qodirov bizni ko'rib, qarshimizga yurdi.  
- Ha, buncha saharlab yurmasalaring? Salom, - dedi u qo'lini omonatgina cho'zib.  
- Usmonjon kecha qamaldi, - dedi Haydarali aka.  
- Ha, eshitdim, - dedi Qodirov. - Yaxshi bo'lmabdi.  
- Sababini bilsangiz kerak? - so'radim men.  
- Afsuski, bilmayman, - dedi u bosh chayqab. - Bilmayman.

- Nima qilamiz endi? - so'radi Haydarali aka.  
- Sizlar qishloqqa ketaveringlar, - dedi Qodirov. - Surishtiramiz. Uch-to'rt kun sabr qilinglar. Aybi bo'lmasa o'zi ham kelib qoladi.  
- Uning qanaqa aybi bo'lishi mumkin! - dedi zarda bilan Haydarali aka. - Tilladay sof odam!  
- Bilaman, bilaman, - dedi Qodirov uni bo'lib. - Surishtiramiz.  
Qishloqqa qaytib, hamma gapni odamlarga yetkazdim-da, biznikiga bordik.  
Oypopuk hali shu yerda edi. Bizni ko'rib, sakrab o'rnidan turdi. Bechora qiz bir kechada cho'p bo'lib qolibdi. Rangi quv o'chgan, kirtaygan ko'zlari javdiraydi.  
- Nima gap? Tinchlikmi? - so'radi u hovliqib.  
- Tinchlik, qizim, tinchlik, - dedi Haydarali aka vazminlik bilan. - Xavotir olma. Dadangning hech qanday gunohi yo'q. Bir oz sabr qilish kerak. Bir-ikki kunda hammasi ravshan bo'ladi. Yo dadangning o'zi kirib keladi. Sabr qilasanmi?  
- Ha, - deya Oypopuk itoatkorona boshini egdi. Oradan, Qodirov aytgandek, uch-to'rt kun emas, bir oy o'tib ketdi. Rayondan hech qanday javob bo'lmadi. Oypopukning bir oy ichida surati qoldi, xolos. Bechora qiz tiq etsa eshikka yugurar, hol-ahvol so'rab kelgan odamlarga, biron yangilik aytisharmikan, deb najot bilan boqardi.  
- Mana, - dedi bir kuni u xoli uchrashganimizda. - Hamma orzularimiz bulut parchalaridek tarqalib ketdi. Keting, deb iltimos qilganimda nega ketmadingiz? Mana, endi bitta men bilan dadamlar emas, siz ham baxtsizsiz.  
- Unday demang, - dedim men yupatishga intilib. - Dadangiz keladi, yana hamma narsa o'z iziga tushib ketadi.  
- Yo'q, endi iziga tushmaydi, - dedi u lablariga oqib tushgan yoshini artar ekan. - Tushmaydi. Yuragim sezib turibdi. Men judayam baxtli edim. Baxt esa doimiy narsa emas. Dadamlarga achinaman. Yana yolg'iz qoldilar. Nima qilayotgan ekanlar hozir?  
- Qo'ying, xafa bo'lmang, yana bir oz sabr qiling.  
- Sabr!.. Sabr qilmay ilojim qancha?  
Lekin mening ilojim qolmadi. Haydarali aka bilan maslahatlashib, yana raykomga borishga qaror qildim. Bordik. Qodirovni topdik.  
- E, kelinglar, - dedi u bizni ko'rishi bilan o'rnidan turib, - ishlar yaxshimi? Durust, durust. Uzumchilikdan bu yil birinchi o'ringa chiqibsizlar. Kecha hisob qilishdi. Durust, durust...  
- Biz Usmonjon masalasi bilan keluvdik, - dedi Haydarali aka uning gapini bo'lib.  
- Ha, ha, tushundim. Qodirov o'yg'a toldi.  
- Bilasizlarmi, - dedi u bir ozdan so'ng. - Ko'p joylar bilan gaplashdim. Lekin natija bermadi.  
- Aybi nima ekan?  
- Bilolmadim, bilolmadim. Lekin o'zlaring aytinglar, aybi bo'lmasa qamalarmidi?  
- Aybi yo'q uning! - dedi qizishib Haydarali aka. - Halol odam-ku u axir!  
Qodirov yelkalarini qisdi.  
- Biz uni yaxshi bilamiz! - dedi Haydarali aka.  
- To'g'ri, - dedi Qodirov sekinlik bilan. - Men uni yaxshi bilmayman. Lekin uni biladigan odamlar, tashkilotlar bor. Balki adash qamalga, balki... Yana kim biladi deysiz. Men qo'limdan kelganini qildim. Bir necha joyga telefon qilib... surishtirdim. Xo'sh... Lekin nega qamaladi, bilmayman. Aybi bo'lmasa qamalarmidi!  
Qodirov qoshlarini chimirib, gap tamom, deganday soatiga qaradi. Bo'shashganimizcha tashqariga chiqdik.  
- Qishloqqa kelib, Oypopukka Qodirov aytgan gaplarning birontasini ham aytmadik. O'zi zo'rg'a yuribdi, - dedi Haydarali aka, - buni eshitsu, tamom bo'ladi-qo'yadi. Qodirovning gaplari rost bo'lsa, keyin o'zi bilib olar. Bu fikrga men ham qo'shildim.  
Oypopukka hali hech narsa ma'lum emas, deb ko'ya qoldik.  
Yana bir necha kun o'tib ketdi. Oypopuk endi yig'lamas, aftidan sekin-asta ko'nika boshlagan edi. Lekin hamon chehrasi so'lg'in, kangap edi. Bu orada miyamda bir fikr paydo bo'ldi. Toshkentga tushib, Qosim akaning oilasi bilan gaplashib kelmoqchi bo'ldim. Axir ikkalovining bir vaqtda qamalishi bejiz emasdir! Fikrimni Mavlonga, Haydarali akaga aytdim. Ma'qullashdi. Oypopuk bo'lsa, sevinib ketdi.  
- Men ham boraman! - dedi u.  
- Qanday qilib borasan? - gapga aralashdi Farida. - Ertaga raykomda bo'lishing kerak. Esingdan chiqdimi? Seni tasdiqlashadi.  
- Xayolimdan ko'tarilibdi, - dedi Oypopuk bo'shashib. - Endi nima qilaman-a? Juda ham borishni istardim!..  
Mening o'zim ham ichimda uning borishiga qarshi edim. Nima qiladi qyynalib? Yaxshi gap eshitsu sak mayli. Hech narsa bilolmasak-chi? Qodirovning gaplarini u yerda ham eshitsu sak-chi?  
- Siz qoling, - dedim. - Raykom chaqirtirgan bo'lsa, shu yerda bo'lishingiz kerak.  
- Xo'p, - dedi u, - sizga ishonaman. Quruq qaytmaysiz.  
- Albatta, - dedim men. - Hammasini surishtiraman. Mana, ko'rasiz, dadangiz chiqib keladilar.  
- Koshkiydi...  
- O'zingizni qiynamang. Va'da berasizmi?  
Oypopuk indamadi. Bag'rimga ohista bosdim-da, issiq peshonasidan o'pdim...  
O'sha kuniyoq pravleniyedan ruxsat olib, Toshkentga jo'nadim.

10

Otam meni ham sevinch, ham hayrat bilan qarshi oldi.

- Kutmagan edim, - dedi uyda o'tirganimizda gap orasida. - O'zing keldingmi yo ish bilan?

Hammasini gapirib berdim.

- Endi Qosim akanikiga boraman, - dedim gapimning oxirida. - Balki Usmon akaning bunga aloqasi bordir?

- Usmon akangni... - dedi otam menga diqqat bilan tikilib, - yaxshi bilasanmi?

- Ha, - dedim men. - Nima edi?

- O'zim, shunday, - otamning negadir gapirgisi kelmadi. - Odamni bilish qiyin. Ba'zilarining tili boshqa-yu, dili boshqa bo'ladi.

- Bilmadim, - dedim qanday javob qilishni bilmay. - Lekin Usmon aka bunaqa bo'lmasa kerak.

- Ishqilib, shunday bo'lsin, - dedi otam. - O'zingga ehtiyot bo'l.

- Nega bunday deyapsiz? - so'radim hayron bo'lib. Otam indamay ko'rpacha ustida yotgan gazetani olib, menga uzatdi-da:

- To'rtinchi betdagi e'lonni o'qi, - dedi.

O'qiy boshladim. Bular ajralish haqidagi e'lonlar edi.

Otamga qaradim.

- O'qi, o'qi, oxirigacha o'qi, - dedi u

Yana o'qishga tushdim. So'nggi satrlarda Sanobar Vohidova degan qandaydir ayolning Qosim Vohidovdan ajralishi haqidagi arizasi shahar sudida ko'riladi, deb yozilgan edi. Hayron bo'lib qoldim.

- Vohidovni taniysizmi? - so'radim otamdan.

- Yo'q. Lekin yomon gap tez tarqaladi. Xo'sh, endi nima deysan? - dedi otam. - Aybi bo'lmasa ajralarmidi? Asirlikda bo'lgan ekan, nimalar qilgan u yokda, kim biladi?!

Otam bilan bo'lgan bu suhbatdan so'ng Qosim akanikiga oyog'im tortmay bordim. Eshikni sekin taqillatdim. "Kim?" - degan xasta ovoz eshitildi. Ko'p o'tmay eshik ochildi.

Oldimda oq doka ro'mol o'ragan bir kampir turardi. Salom berdim.

- Alaykum salom. Keling, bolam? - dedi kampir menga ko'zlarini tikib. - Ichkariga kiring. Kimsiz, bolam?

- Tanimaysiz meni, - dedim uning orqasidan ichkariga kirib.

- Suddanmasmisiz?

- Yo'q. Men qishloqdanman. Yakkachinordan.

- Yakkachinordan? - so'radi kampir hovlining o'rtaqidagi supaga o'tirib. - Usmonjonning oldidanmi?

- Ha.

- Voy aylanay-ey, salomatmisiz? Usmonjon o'zi eson-omon yuribdimi? Popuk qalay? Katta qiz bo'lib yuribdimi? Anchadan beri ko'rganim yo'q. Maktabni bitiray dedimi?

- Ha, bitirgan. Kolxozda ishlayapti.

- Baraka topsin. Biram aqlli qizki! Biram yoqimtoyki! Xuddi popukning o'zi deysiz. Omin! Hamma balo-qazolardan xudo o'zi asrasin, Ollohu akbar!

Kampir fotiha o'qib, menga yuzlandi.

- Keling, bolam?

- Kelinoyim uydamlar?

- Yo'q, halizamon kelib qoladi. Nima edi?

- Usmon akam... Usmon akam qamalib qoldi.

- Voy sho'rim? Voy sho'r peshonam! Voy bola bechora!.. Kampirning ko'zlaridan tirqirab yosh oqib ketdi. U entikardi. Anchadan so'ng og'ir xo'rsinib, ro'mol uchi bilan ko'zlarini artirda-da, menga qaradi.

- Nega qamaldi? Nima gunoh qilgan ekan?

- Bilmaymiz, - dedim men. - Qosim akamlarning ishlariga aloqadormikin, deb bu yoqqa keldim. Kelinoyimlar bilan surishtirsakmikin?

- Surishtirishning hojati yo'q, - dedi shu tob orqamdan begona ovoz.

O'girildim. Bu yosh, kelishgan juvon edi. Qosim akaning xotini ekanligini darrov payqadim.

- Surishtirishning hojati yo'q, - dedi u men bilan so'rashar ekan yangitdan. - Hech qanday natija bermaydi. Men bilaman.

- Sen hammasini bilasan, bolam, - dedi kampir istehzo bilan.

- Ha, bilaman, oyi! - dedi juvon jiddiy ohangda. - Kesatmang.

- Bilganing uchun ajralayotgan ekansan-da! - kampir yig'lab yubordi.

- Ha, bilganim uchun! - dedi juvon o'zini jahldan zo'rg'a tutib. - Mayli, mendan xafa bo'lavering. Lekin bir narsani yaxshi bilib qo'ying. O'g'lingiz sizga qanchalik aziz bo'lsa, menga ham shunchalik azizlar.

Juvon shunday deb menga o'girildi-da, og'ir xo'rsinib, dedi:

- Hozir o'sha yoqdan kelyapman. Usmon akam shu yerda emish. Qosim akam ko'ribdilar. Lekin gaplasha olmaptilar. Menimcha, Usmon akam Qosim akamning ishlari bilan qamalgan bo'lsalar kerak. Ular juda yaqin edi. Bormoqchimisiz?

Boshimni qimirlatdim.

- Foydasi yo'q, - dedi juvon. - Hech narsa bilolmaysiz. Salomat, deyshadi, xolos. Hech narsa qilolmaysiz. Yaxshisi, qayting, Oypopukni ovuting, ko'p qayg'urmasin. Peshonamizdagini ko'ramiz. Mendan salom ayting. Sal tinchiy, boraman o'zim.

Kampir bilan xayrlashdim-da, eshikka yo'l oldim. Juvon kuzatib qo'ydi.

- Menga qarang, - dedi ketayotganimda to'xtatib. - Sizdan iltimos, oyimlar bilan, boyagi... ajralish haqidagi gapimiz oramizda qolsin. Xo'pmi?

- Xo'p, - dedim.

- Rahmat.

Shunday deb, u kirib ketdi. Eshik yopildi. Men joyimda turib qoldim. Boshim gangigan edi. Hech narsani tushunmas edim. Ammo borgan sari yuragimda paydo bo'lgan g'ulg'ula kuchayardi. "Nahotki rost bo'lsa? - derdim o'zimcha. - Nahotki Usmon aka aybdor bo'lsa!" - Shunday derdim-u, bu gapga ishonishimni ham, ishonmasligimni ham bilmasdim.

- Nima gap? - so'radi otam uyga kelganimda. - Biron narsa bildingmi?

- Yo'q, - dedim men. - Lekin Qosim akaning xotini, hammalari bir ish yuzasidan bo'lsa kerak, deyapti.

- Ha... - dedi otam o'ylanib. - Aybi bo'lmasa qamalmasdi.

Men indamadim. Nazarimda, otam haqday edi...

Ana shunday ahmoqona, bir umrga meni badbaxt qilgan gunohkorona ishonch bilan uchinchi kuni qishloqqa qaytdim. To'g'ri uyimga bordim. Mavlon nimanidir yozib o'tirardi.

- Nima gap? - deb so'radi u ham otamga o'xshab.

Hech gap yo'q, degandek boshimni qimirlatdim-da, karavotga cho'zildim. Mavlon yonimga o'tirdi. Qancha vaqt o'tdi, bilmayman, bir mahal:

- Oypopukni tasdiqlamadi, - dedi u. O'rnimdan turib ketdim.

- Aldamang!

- Aldab nima qilaman? - dedi doktor. - Rost.

- Nega? Nima uchun?

- Bilmayman. Vaqtincha sabr qiling, deyshibdi. Boshqa hech narsa bilmayman. Otasi uchun bo'lsa kerak-da!

- Otasi uchun?

Mavlon indamadi. Bo'shahganimcha yostiqqa yonboshladim. Men o'ylardim. Ammo miyaga hech narsa kelmasdi. Qorong'i tushdi. Qayerdadir tovuq qo'rquv aralash qaqilladi. Men hamon yonboshlab yotardim.

- Oypopukni ko'rdingizmi? - so'radi doktor.

- Yo'q, - dedim.

- Bormaysizmi? Sizni kutib o'tirgandir?

Bu gap meni o'zimga keltirdi. O'rimdan turib, Oypopuklarnikiga yo'l oldim.

Hovlida Farida meni qarshi oldi.

- Keldingizmi! - dedi u quvonib. - Popukning mazasi yo'q. Hech narsa yemaydi, hech narsa demaydi. Raykomda tasdiqlashmadi...

U piqirlab yig'lab yubordi.

- Eshitdim, - dedim men, - o'zi qani?

- Uyda. O'tiribdi. Ko'zi oynada.

Ichkariga kirdim. Oypopuk deraza oldida o'tirardi. Egnida no'xat gulli ko'ylagi. Boshida dadasiga tikib bergan qo'qon do'ppisi.

Hali-hali esimda. Mening kirganimni sezmedi. Ko'zlarini olis-olislarga qadab o'tiraverdi. Mah-liyo bo'lib qoldim. Ko'zlarimga u butunlay boshqacha bo'lib ko'rinib ketdi. U ancha ulg'aygan, butun qomatida, chimirilgan qoshlari bir-biriga yopishib, g'unchadek tugilgan lablarida salobat, vazminlik sezilib turardi.

- Oypopuk? - dedim sekin.

U cho'chib, orqasiga qaradi-da, sevinib ketdi.

- Keldingizmi?! - dedi qarshimga yurib. - Sizni rosayam kutdim. Lekin kelguningizcha yig'laganim yo'q. Mana, qarang.

Yig'laganga o'xshaymanmi?

U o'zini qanchalik sho'x tutishga harakat qilmasin, qaltiroq ovozi, qovoqlari shishgan ko'zlari ancha azob tortganini, yig'laganini bildirib turardi.

- Yo'q, o'xshamaysiz, - dedim jilmayib.

- Xo'sh, nima gap? Qosim akamnikiga bordingizmi? Men hammasini aytib berdim. Oypopuk yana xomush bo'lib qoldi. Ko'zlari derazaga qadaldi, rangsiz lablari nimanidir shivirlay boshladi.

- Yo'q! - dedi u bir mahal qat'iy ohangda. - Dadamlarning ayblari yo'q. Bu tuhmat. Dadamlarda ayb yo'q.

- Kim biladi, - dedim men. - Ayblari bo'lmasa qamashmasdi.

Bu gap, shu birgina shafqatsizlik bilan aytilgan gap meni umrbod badbaxt qildi, hamma narsadan aziz va qimmatli bo'lgan odamimdan judo qildi. Nega shunday dedim, nima majbur qildi, hozirgacha bilolmayman.

Oypopuk menga yalt etib qaradi. Uning bu qarashini men sira yodimdan chiqara olmayman. Uning ko'zlari xuddi g'azabga kelgan sherning ko'zlaridek yonardi.

- Nima?! - dedi u bo'g'ilib va yana nimadir demoqchi bo'lib og'iz juftladi, lekin ayta olmadi. U titrardi.

- Keting, - dedi u bir mahal bosiq ovozda. - Keting bu uydan.

- Oypopuk, axir men...

- Keting deyaqman! - U ko'zlarini yumib, mendan yuzini o'girdi.

Chiqib ketdim. Nega chiqib ketdim. Nega qolib yupatmadim, kechirim so'ramadim? Axir har qanday bag'ritosh odam ham bunday qilmaydi-ku! Endi o'ylab ko'rsam, men o'shanda "haqoratlanibman", ha, uning "keting" deganidan haqoratlanibman. Eh, bachkana g'urur, pastkash odam!.. Men Oypopukdan xafa bo'libman-u, ammo o'zim uni haqoratlaganimni, ipakdek nozik qalbiga bir gap bilan xanjar sanchib qo'yganimni sezmapman.

Uyga kelganimda doktor uxlab yotardi. Men ham yotdim. Ammo uyqu kelmadi. Miyamda ming xil fikr, lekin nimaligini bilmasdim. Faqat bir narsani, tuzatib bo'lmaydigan hodisaning yuz berganini va bunga bitta o'zim aybdor ekanligimni aniq his qilardim.

Oradan ko'p vaqt o'tmadi. Deraza sekin-sekin taqillay boshladi. Ochdim. Farida edi.

- Nima gap? - so'radim undan.

- Popuk yo'q, - dedi javdirab. - Siz ketganingizdan keyin, bir aylanib kelaman, boshim og'riyapti, deb chiqib ketuvdi, haliyam kelmayapti.

Derazadan sakrab ko'chaga tushdim. Nima qilishimni, qayoqqa borishimni bilmasdim. Yuragim dukullar, dam yig'lamsirab turgan Faridaga, dam ko'chaga qarab alanglardim. Keyin daryo tomonga yugurib ketdim. Barglari to'kilib, yalang'och bo'lib qolgan olmozardan o'tib, xarsangtosh yoniga bordim. Oypopuk yo'q edi. Qirg'oq bo'ylab choyxona tomonga chopib ketdim. U yerda ham yo'q edi. Orqamga qaytib, uzumzor tomonga yugurdim. Bir marta shu yerda aylangan edik. Yo'q, ko'rinmadi. "Oypopuk, Popuv-v!" - deb qichqirdim. Hech qanday javob bo'lmadi. Qo'rqib ketdim. Qishloqqa yugurdim. Oypopuklarning uyi odamga to'lib ketgan edi.

- Yo'qmi? - so'radi Saksonboy ota.

- Yo'q, - dedim.

- Qayoqqa ketdiykin?

- Qidiramiz! - dedi Haydarali aka.

Hamma har tarafga tarqalib ketdi. Men ham ketdim. Birga bo'lgan joylarimizni boshqatdan aylana boshladim. Oypopuk yo'q edi.

Hammayoq jimjit. Faqat olis-olislardan: "Popuv-v! Popuv-v!" degan bo'g'iq tovushlar eshitalardi...

Tongga yaqin Yakkachinor o'sgan qoya tagida Oypopuk topildi. Ammo u... jonsiz edi.

11

Dunyo ko'zimizga qorong'i ko'rinib ketdi. Men har qanday qiyinchilikni kutgan edim, ammo bunday fojia xayolimga ham kelmagan edi. Hamma hayron. Uning qanday qilib halok bo'lganini hech kim bilmas edi. Lekin men uchun buning mutlako ahamiyati yo'q edi. U qanday qilib halok bo'lgan bo'lsa ham, aybdori men edim. Ha, men, shafqatsiz, qo'rqqoq, o'z tinchligini o'ylagan badbaxt odam! Agar men o'shanda birgina so'zni aytmaganimda, uni yupatganimda, hech kimga quloq solmasdan, unga ishonganimda, bu fojia, butun qishloqni zilzilaga solgan bu mudhish fojia yuz bermasdi. Ha, yuz bermasdi.

Buni yaxshi bilardim. Shuning uchun vahimaga tushib qoldim. Nuqul yig'layman. Tilimga so'z kelmaydi. Agar o'shanda:

"Odamlar! Vijdonini yo'qotgan odam men, men qotil! Men uni, bu saxiy, mehribon, katta qalb egasi bo'lgan qizni, bulokdek sof,

21 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ



hayotining o'ziday go'zal qizini o'ldirdim!" - deb hammasini ro'y-rost aytganimda yengil tortarmidim? Yo'q, bu gapni aytmadim, aytolmadim, qo'rqqoq-lik qildim.

Oyopopukni dafn etib qaytganimizda Mavlonning oldiga kirdim.

- Doktor, - dedim unga. - Esingizdami, ketaman bu yerdan, degan edingiz. Yuring, birga ketamiz.

Mavlon o'yilanib qoldi. Keyin menga yeb yuborguday bo'lib tikilib:

- Yo'q. Endi men ketmayman, - dedi. - Ketsangiz o'zingiz ketavering, katta yo'l.

O'sha kuniyoq Yakkachinordan ketib qoldim. Nazarimda, butun qishloq, dov-daraxt, o't-o'lan menga nafrat va cheksiz g'azab bilan qarayatgandek edi... Ko'kdagi yulduzlar ham so'nik, kechagina to'lishib turgan oy bulutlar orasiga kirib yo'qolgan, yo'lim qorong'i edi.

12

Oradan olti yil o'tdi. Hayot butunlay o'zgarib ketdi. Necha yillab berk turgan derazalar ochilib, uylar saxiy quyosh nuriga ko'mildi. Kulgi unutilgan xonadonlarda qadahlar jarangi, sho'x qahqaha sadolari yana paydo bo'ldi. Ko'chalarni ishonch bilan tashlangan dadil qadamlar bosib ketdi.

Ishonch! Inson ishonch bilan tirik. Unga ishonish kerak. Agar insonga ishonilmasa, falokat yuz beradi. Afsus-ki, men buni keyin tushundim. Mendaqalar esa ozmidi?!

Men ularga achinaman. Insonga ishonmay ular nima foyda ko'rishdi? Nima orttirishdi? Faqat g'am va iztirob!

Men-chi? Men g'am va iztirobdan tashqari yolg'izlik orttirdim. G'amim bir umrga yetadi, yolg'izligim esa u bilan doim esh.

Yakkachinordan ketib qolganimdan beri faqat ishgina ovunchog'im bo'ldi. Toshkentga kelib ilmiy-tekshirish institutiga kirdim.

Ertalab kelaman-u, turli qog'ozlarga mukkamdan tushib, kunni kech qilaman. Keyin yolg'izlik... Pushaymon, o'kinch. Mening aybim umr bo'yi yuvilmasa kerak. Ba'zan qishloqni o'ylab ketaman. Oyopopuk bilan yurgan joylarimiz, bepoyon dalalar, qir, sho'x daryo, uzumzor, bog'lar birma-bir ko'z oldimdan o'tadi. Doktorni eslayman. Negadir mallasoch bola - Bahodir xayolimga keladi. Ba'zan Shahodat xolaning serqatiq moshxo'rdasi dimog'imni qitiqlaydi. Usmon akani negadir kam o'ylayman. Lekin ko'p tushimga kiradi. Tushlarim negadir deyarli bir xil: bepoyon dala. O'rtasiga qizil gilam to'shalgan. Usmon aka shu gilamning ustida oq ot minib turadi. Oyopopuk unga oq, sariq, qizil gullardan guldasta tutadi.

Qachonlardir tushimda shu oq otni men minib turgan edim...

Usmon aka chiqib kelgan. Ancha bo'lgan kelganiga. Buni tasodifan bilib qoldim.

Bir kuni kechqurun Karl Marks ko'chasidan ketayotsam, oldimda ikki kishi ko'rindi. Ular men tomonga kelishardi. Biri ayol, biri erkak. Ayol erkakni qo'ltiqib olib, nimanidir gapirib kelyapti. Ikkovi shod. Yaqinroq kelishganda ularni tanidim. Qosim aka bilan xotini, o'sha men uchratgan ayol edi.

Ular meni ko'rishmadi. Yonimdan o'tib ketishayotganda yuragim o'ynab ketdi. Salom berib yubordim.

- Salom, - dedi Qosim aka to'xtab va qo'lini uzatdi. Shu payt ayol bilan ko'zimiz to'qnashdi.

- E, salom, - dedi u jilmayib, - yaxshi yuribsizmi?

- Usmon akamdan hech qanday xabar bormi? - so'radim shoshib.

- Hali xabaringiz yo'qmi? - dedi ayol. - Allaqachon kelganlar. Mana, Qosim akangiz bilan birga kelishgan.

- Rahmat, kechirasiz, bezovta qildim, - dedim men.

- Hechqisi yo'q, hechqisi yo'q! - dedi Qosim aka va bu kim, deganday xotiniga qaradi.

Ayol ko'zlarini bilinar-bilinmas qisib qo'ydi. Men yo'lga tushdim.

- Yaxshi yigit! - chaqirdi bir-ikki qadam bosganimda ayol.

To'xtadim.

- Agar u kishini ko'rmoqchi bo'lsangiz, yakshanba kuni kechqurun biznikiga keling. Adres esingizdadir.

- Esimda, rahmat! - dedim men.

Yakshanba kuni bordim. Lekin kirmadim. Kirishga jur'at qilolmadim. Ancha vaqt uyning atrofida aylanib yurdim. Keyin, o'g'ri odamday deraza yoniga borib, ichkariga mo'raladim. Usmon aka ro'paramda o'tirardi. Yuragim o'ynab ketdi. Xuddi Oyopopukni ko'rgandek bo'lib ketdim. Usmon aka o'zgormabdi. Faqat sochi kumushdek oqarib ketibdi, ko'z ostidagi ajinlari ko'payibdi. Uzoq qarab turdim. U nimanidir goh kuyinib, goh kulib hikoya qilardi. Ko'p o'tmay, o'rmidan turdi. O'zimni panaga oldim. Eshikda xayrlashib, yana anchagacha gaplashib turishdi. Keyin Usmon aka "Gazik"ka o'tirib jo'nadi.

Bu uchrashuv menga qanday ta'sir qilganini bilsangiz edi! Yolg'iz o'zim tonggacha ko'chalarni aylanib yurdim. Miyamni turli fikrlar qopladi. Men Yakkachinorga borishim kerak. Ha, borishim kerak. Men ular bilan birga bo'lishim kerak, dedim o'zimga nihoyat va shunday qildim.

Qishloqqa oqshom payti yetib bordim. Uzoqda, kolxoz idorasining orqasida kimdir chirmanda chalardi. Nimadir tomog'imga kelib tiqildi. Oyopopuk bilan birinchi uchrashgan kunim xuddi chaqmoq chaqqandek ko'z oldimdan o'tib ketdi. To'g'riga yurolmadim. Chapga burildim. Ko'prikdan o'tganimda oyoqlarim bo'shshib, to'xtab qoldim. Qancha turdim, bilmayman. Nihoyat, o'zimni bosib olib, daryo labidan bitta-bitta yurib ketdim. Olisdan choyxona ko'rindi. O'sha, o'sha choyxona. O'zgormabdi. Faqat yoniga ikki qavatli bino tushibdi. Shu tomonga yurdim. Choyxonaga yaqinlashganimda medpunktдан yoshgina ayol kichkina bir bolani yetaklab chiqib ketdi. Yuragim dukillab ura boshladi. Ichkariga kirdim. Oq xalat kiygan to'lagina bir kishi mikroskopda nimanidir ko'rib o'tirardi. Tanidim. Mavlon.

- Doktor, - dedim sekin.

U o'girildi. Birpas qarab turdi. Keyin:

- O'ktamjon! - deb dast o'rmidan turdi.

Quchog'iga tashlanib, o'zimni tutolmay, yig'lab yubordim.

- Butunlaymi?! - dedi u anchadan so'ng.

- Ha, - dedim qat'iy ravishda. - Butunlay. Lekin...

- Nima lekin? - qoshlarini chimirdi Mavlon.

- Lekin meni qabul qilisharmikin? Men axir o'shanda... - gapirolmadim. - Men gunohkorman, axir!

Mavlon indamadi. Anchagina jim qoldi. O' o'yarladi. Qoshlari chimirilgan, lablari yumuq.

- Ha... - dedi u bir mahal. - Qanday kunlarni boshimizdan kechirmadik. Lekin ko'p qayg'urmang, davr o'zi shunaqa edi. U ba'zi odamlarni esankiratib qo'ydi, yuragiga g'ulg'ula soldi, yo'ldan ozdirdi, hatto o'zidan cho'chiydigan qam qilib qo'ydi. Baxtimizga u

This is not registered version of TotalDocConverter

kuhni o'riniga qo'yib, o'ziga o'zini qo'yib, o'zini chagansiz. Farida chuchvara qilmoqchi bugun. O'zi ham hozirgina o'g'ilcha bilan shu yerda edi. Yuring.

- Yo'q, - dedim men o'rnimdan turib. - Avval boshqa joyga borishim kerak.

Doktor qayergaligini surishtirmadi.

Medpunktdan chiqib, tog' tomonga ketdim. Qabriston olis emas edi. Birpasda yetib bordim. Oypopukning qabri ustiga katta qora marmartosh yotqizilibdi. Toshning ustida yangi uzilgan gullar sochilib yotibdi. Mayin shamol ularning muattar hidini dimog'imga urdi. Seskanib ketdim. Lablarimni iliq nam achita boshladi. Boshimni egganimcha turib qoldim. Bir zumda ko'z oldimdan Oypopuk bilan o'tkazganim ajoyib damlar, unutilmas kulgi jaranglardi, dunyodagi eng lazzatli gaplarning musiqiy ohangi, yurakni ezuvchi ko'z yoshlar va mudhish fojia o'tib ketdi. Xayolga cho'mdim. Nima qilish kerak, nima qilsam ko'nglim taskin topadi, nima qilsam hayoti gullamay xazon bo'lgan, mening uchun dunyodagi eng aziz odamning ruhini shod qilgan bo'laman, - derdim o'zimcha va o'yga botardim. Shu alfozda qancha turdim, bilmayman. Bir mahal kimdir tirsagimni ushladi. Bu doktor edi.

- Bo'ldi, yuring, - dedi u.

Qaytdik. O'sma ko'prikka yetganimizda orqamga o'girildim. Qorong'i tushgan, hech narsa ko'rinmasdi. Faqat baland qoya ustida qishloq tomonga egilib o'sgan yakkachinor botayotgan quyoshning qizg'ish nurlaridan yaltirardi. U xuddi qo'llarini cho'zib, sevikli hayot yo'ldoshiga oltin guldasta uzatib turgan pahlavon yigitga o'xshardi. Yuragim battar ezilib ketdi. Chinorga havasim keldi. Bu havas, tirik chkanman, qalbimda so'nmaydi va doim Oypopuk qabrini ziyorat qilgani borganimda, unga qarab: "Odamlar! Sevgi ishonchsiz bo'lmaydi. Bir-biringizga ishoning. Dunyoda bundan katta baxt yo'q!" - deb qichqirgim keladi.

1961ББ”1962 yillar.